

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

TARIX-FALSAFA FAKULTETI

IJTIMOIIY ISH YO'NALISHI

SOTSILOGIYA VA IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

**FUQAROLIK JAMIYATI SHAKLLANISH JARAYONIDA
G'ARB VA SHARQ IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINING
UMUMMILLIYLIGI VA O'ZIGA XOSLIGI**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Kubayev B.

Ilmiy rahbar: prof. Nabiyeu F.X.

**Malakaviy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2011 yil ___ ___dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayyonnoma № ___).**

Kafedra mudiri:

dots.Jo'rayev L.N.

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2011 yil ___ ___dagi majlisida
himoya qilindi va ___ foizga baholandi (bayyonnoma № ___).**

Samarqand – 2011.

Mavzu: Fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonida G'arb va Sharq ijtimoiy himoya tizimining umumiyliigi va o'ziga xosligi

Reja:

Kirish

I-bob. SHARQ VA G'ARB IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

1.1 Sharqda ijtimoiy himoya tizimining evolyusion rivojlanishi

1.2 G'arbda aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmi va huquqiy kafolatlari

II-bob. O'ZBEKISTONDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASH DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI SIFATIDA.

2.1 O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi va aholini ijtimoiy himoyalashning ustuvor vazifalari

2.2 Mahallada aholini ijtimoiy himoyalash tizimini rivojlantirish istiqbollari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati fuqarolik jamiyatiga o'tib borayotgan O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllanish jarayonini o'rganish eng dolzarb mavzulardan bo'lib hisoblanadi. Chunki kuchli davlatdan - kuchli fuqaroliku jamiyati sari konsepsiyasi zamonamiz mohiyati bo'lib hisoblanadi. Mavzu fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonida masalalariga bag'ishlanganligi uni dolzarbligini yanada oshiradi. Chunki O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgani bozor munosabatlari yo'lini tanlagan va taraqqiyotiga o'zbek modelini besh tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosat bo'lib hisoblanadi. Bularni barini tanlagan mavzuga dolzarbligini va ilmiy - amaliy ahamiyatini yaqqol ko'rsatib turibdi. Bundan tashqari ijtimoiy himoya muammosi G'arb va Sharqni qiyosiy qiyosiy taqqoslagan holda o'rganilgan qaratilgan bo'lib uni ilmiy-amaliy ahamiyati yanada oshiradi. Chunki ijtimoiy himoya obyektlari global xaakterga ega bo'lib borayotgan bir paytda ularni bartaraf qilish choralari ham global xarakterda bo'lishni taqozo etadi. Buning uchun G'arb va Sharqdagi ijtimoiy himoya tizimini umummiyligi va o'ziga xosligi shuni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda insoniyat jamiyati oldida turgan global muammolarni hal qilish global tadbirlarni taqozo etadi. Insoniyat jamiyatini halokat yoqqasiga olib kelib qo'ygan yadro qirg'in quroli tahdidi, terrorizm, ekologik tahdid va oilaning global inqirozi kabi muammolar fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonida ma'naviyat yuksalishiga yetarli e'tibor qilmaslik oqibatida kelib chiqqan. Jumladan, oilaning global inqirozi ham fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonida aholini tarbiyaga e'tibor qilmaslik oqibatida kelib chiqishi ma'naviy qashshoqlikni natimjasi bo'lib hisoblanadi.

G'arb va Sharqdagi fuqarolik jamiyatini shakllanish jarayonini va darajasi bo'lgani uchun ham uni oqibatlari turlicha namoyon bo'lmoqda. Fuqarolik jamiyati uzoq tarixiy jarayonda rivojlanib kelayotgan G'arb mamlakatlarida oilani global inqirozi yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Fuqarolik jamiyati endigina

shakllanayotgan Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda oilani global inqirozi darajasidan kelib chiqib har xil bo'lishi mumkin. Buning uchun G'arb va Sharqdagi ijtimoiy himoya tizimini umummilliyliigi va o'ziga xosligini o'rganish muhim ilmiy-amaliys ahamiyat kasb etadigan dolzarb mavzu bo'lib hisoblanadi.

O'rganilayotgan mavzu uzoq yillar davomida, ayniqsa, sobiq sovetlar zamonida nafaqat davlatni, balkim ilmiy jamoatchilikni ham chetda qolgan edi. Chunki o'sha zamonning asosan iqtisodiy qonuniy ya'ni aholini doimiy o'sib borayotgan ehtiyojni qondirish qonuni ijtimoiy himoyaga alohida qaratish zarurati yo'q degani xato fikrni keltirib chiqargani edi. Shuning uchun ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosatga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Oqibatda ushbu mavzu jamiyatshunos olimlarni nazardan chetda qolgna edi. Natijada sosial muammolar va aholini ijtimoiy himoyasi masalalari keskinlashib boradi. Ushbu muammoga e'tibor qilmaslik ijtimoiy sohadagi vaziyatni keskinlashtirib yubordi. Ijtimoiy sohadagi muammolar sobiq sovetlar tuzumini barbod bo'lishi sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Faqat mustaqillikka erishgandan so'nggina ijtimoiy himoya masalalari davlat va jamiyatni diqqat markazidagi ustuvor vazifaga aylandi. Shu bilan birgalikda ijtimoiy himoya muammolari ilmiy jihatdan tadbiq qilishi oqibatiga aylanib bordi. Ushbu malakaviy bitiruv ishi ham ijtimoiy himoya muammolarini tadqiq qilish oqibatiga aylanib bordi. Ushbu malakaviy bitiruv ishida ham ijtimoiy himoya muammolarini tadqiq qilishga urinishlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Sharqda ijtimoiy himoya tizimi jamoaviylik tuyg'usi negizida evolyusion tarzda rivojlanib keldi. Jamoaviylik tuyg'usi o'zgalar manfaatini ustuvorligiga asoslanganligi uchun ma'naviyatga ehtiyoj kuchli bo'lgan. Shuning uchun Sharq mamlakatlarida axloqiy tarbiyaga jiddiy munosabatda bo'lib ma'naviyat yuksalib bordi. Ma'naviyat ijtimoiy himoyani samarali qilishga xizmat qilish bilan birga oila global inqirozini nisbatan yumshoqroq namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

G'arb mamlakatlariga xos bo'lgan individualizm g'oyasi o'zgalar mnafaatini emas, balkim egoistik manfaatni ustun qo'yishga asoslanishi uchun ma'naviyatga kuchli ehtiyojni keltirib chiqarmaydi. Oqibatda G'arb mamlakatlaridagi

ma'naviyat oilani global inqirozini keltirib chiqaradi. Lekin ularni ma'naviyati oila bilan bo'lgan o'zgarishlarni inqiroz deb emas, balkim modernizasiya deb qabul qilishmoqda. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy himoyada o'ziga xos yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda.

Bizlar ulardan farq qilib ijtimoiy himoyada asosiy e'tiborni oilaga qaratishimiz lozim. Chunki bizlarda oilani inqirozi endigina namoyon bo'lmaydi. Oilani mustahkamlash orqali bolalarni va ayollarni ijtimoiy himoyasini ham kuchli qilish mumkin bo'ladi.

I-bob. SHARQ VA G'ARB IJTIMOY HIMOYA TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

1.1 Sharqda ijtimoiy himoya tizimining evolyusion rivojlanishi

Ishning maqsadi: Aholini ijtimoiy muhofazalash tizimining nazariy asoslari va amaliyotining shakllanishi hamda rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti davomida ishlab chiqarish kuchlari o'rtasidagi mutanosiblik, mehnatni tashkillantirish shakllari, tegishli davlat, millatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy xususiyatlari, an'analari, turmush tarziga bog'liq holda sodir bo'ladigan jarayondir. Ushbu tizim tarixiga nazar salsak, insonlarni turli hayotiy voqea-hodisalar – kasallik, qarilik, tabiiy ofatlar, boshqa baxtsiz hodisalarning og'ir va ko'ngilsiz oqibatlaridan himoyalashning alohida ko'rinishlari, uning tarkibiy qismlari, amalga oshirish mezonlari, me'yorlari, mexanizm va institutlarining bosqichma-bosqich shakllanib borganligining guvohi bo'lamiz.

Xususan, o'zini-o'zi moddiy ta'minlay olish imkoniyati cheklangan, mehnat qobiliyatini yo'qotgan yoki ishlab chiqarishda bevosita band bo'lgan aholi qatlamlarini ijtimoiy muhofazalash muammosi tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Qadimgi davr va o'rta asrlarda Sharq va Farb davlatlarida aholini kam ta'minlangan muhtoj qismini ijtimoiy himoyalashning an'anaviy shakli mavjud bo'lib, unga ko'ra, oila, qo'ni-qo'shnilar, bir hududda istiqomat qiluvchi jamoa, kasb-hunar yoki ishlab chiqarish uyushmalari, diniy muassasalar tomonidan amalga oshirilgan. Biz bu boradagi dastlabki ma'lumotlarni vaqtinchalik bandlikni ta'minlovchi shartnoma shaklidagi kelishuvlardan kuzatishimiz mumkin.

Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda ijtimoiy muhofazaning qadimgi davrga xos bo'lgan shakllari haqidagi ilk ma'lumotlar zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da keltiriladi. Zardo'shtiylik o'z davrida insonning yer yuzida farovon yashashiga katta ahamiyat bergan olijanob dinlardan bo'lib, uning ta'limotidagi ezgu niyat, latif so'z, yaxshi ishning mujassamligi deyilganda faqirlarga mehribonlik, insonparvarlik, kishiga isnod keltiruvchi ishlardan xoli bo'lish tushunilgan. «Avesto»ning eng qadimgi Yashtlar qismida tabiiy va ijtimoiy hayotning alohida

sohalarini boshqarib turuvchi tangrilar mavjud deb hisoblanib, jumladan, ijtimoiy barqarorlik, farovonlik ma'budi – Parendi qabilalarni parokandalikka eltuvchi zo'ravonlik, bekorga qon to'kishlar, faqir kishilarga nisbatan adolatsizlik, ularning mol-mulkiga ziyon yetkazishni qoralagan, vayronalik va halokatlarning oldini olish uchun halol mehnat bilan tinch-totuv yashashga chaqirgan.¹ Bizningcha, shu tariqa zardo'shtiylik dinining asosiy tamoyillari o'z zamonasida aholining turli qatlamlari o'rtasidagi nomutanosiblikni tartibga soluvchilik vazifasini o'tagan.

VI-VIII asrlar (ilk o'rta asrlar) da islom dinining insonparvarlik g'oyalari ta'sirida aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofazalash choralari yaxlit tizim ko'rinishida bo'lmasa-da, nogironlar, yetim-yesirlar, qariyalar, beva-bechoralarga g'amxo'rlik qilish shaklida qo'llana boshlaydi. Ushbu davrdan joriy etilgan zakotdan yig'ilgan mablag'lar asosida maxsus jamg'armalar tashkil qilinadi. Mazkur jamg'armalar hisobidan kambag'allar, qarzdorlarga ko'maklashish, qullikka tushganlarni ozod qilish, och-nahorlar, yetim-yesirlar va beva-bechoralarga oziq-ovqat ulashish maqsadida foydalaniladi. Bu ezgu amallarni keng yoyilishida hadislarining ta'siri katta bo'lib, unda xususan, «Nafaqa berishni o'zingdan boshla! Agarda ortsa oila a'zolaringga sarfla, agarda ulardan ham ortsa qarindoshlaringga sarfla. Agarda qarindoshlaringdan ham ortsa shu yo'sinda avval yaqin, keyin uzoqlaringga sarflayber»,² – deb ta'kidlanadi. Zero, ibratli ishlar, imon-e'tiqod, adolat, xolislik, poklik, yolg'on gapirmaslik, beva-bechoralar, yetim-yesirlarning haqqiga ko'z tikmaslikka chaqiruvchi ushbu o'gitlar, pand-nasihatlar Sharq xalqlariga xos bo'lgan jamoaviy birdamlik va hamdardlikni o'zida aks ettiradi.

O'rta Osiyo Sharq dunyosining ilmiy-madaniy markaziga aylangan IX-XIII asrlarda yashab ijod etgan mutafakkirlar o'z ijtimoiy qarashlarida jamiyatning mehnat qobiliyatiga ega bo'lmagan yoki turli hayotiy voqyea-hodisalar natijasida ushbu qobiliyatini yo'qotgan zaif, ojiz qatlamlarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoyalash muammolarini o'rganar ekanlar, mutafakkirlardan Abu Nasr Forobiy, Xo'ja Bahovuddin Naqshbandiylar insonni jismoniy va ruhiy holatidan qat'iy nazar, o'zi uchun moddiy farovonlik yarata olish qudratiga ega bo'lgan mukammal mavjudot va o'zгалar

¹ Бобоев Х., Ҳасанов С. «Авесто» – маънавиятимиз сарчашмаси. – Тошкент: Адолат, 2001. – 110 б; Катехизис зороастризма. Древняя религия магов. – М.: Сфера, 2002. – 373 с; Карим Т. Мукаддас «Авесто» изидан. – Тошкент: Чўлпон, 2000. – 80 б.

² Абу Абдуллох Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. 4.Т. – Тошкент: Қомуслар, 1997. Т.3. – Б. 475-476.

yordamiga umid qilishni boqimandalik deb biladilar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy (873-980) o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida inson «ojiz banda» emas, aksincha, o'zi uchun zaruriy farovonlikni yarata olish qudratiga ega bo'lgan borliq ekanligini ta'kidlaydi.¹ Tasavvuf ta'limotining mashhur namoyondalaridan Xo'ja Bahovuddin Naqshbandiyning tariqati asosini mehnatsevarlik tashkil qilib, «Dast ba koru dil ba yor» ya'ni, inson qalbida Ollohni madh qilgani holda, kun ko'rish uchun mehnat qilishi zaruriyatini ko'rsatadi.² Fikrimizcha, mazkur fikrlar mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan aholi qatlamiga nisbatan bildirilgan bo'lib, insonni o'z aqliy va jisimoiy imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga undaydi. Ammo, biz bilamizki, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida aholining mustaqil hayot kechirish qobiliyatiga ega bo'lmagan ojiz qatlamlari mavjud bo'lib, ular o'z g'alalar g'amxo'rligiga muhtojdirlar.

Ushbu davrda yashab ijod etgan mutafakkirlardan Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Yassaviylar, aksincha, yordamga muhtoj bo'lganlarga madad qo'lini cho'zish, har bir inson uchun munosib turmush tarzini yaratish, ularga insonparvarlik nuqtai nazaridan munosabatda bo'lishlikni targ'ib qiladilar. Xususan, Abu Ali Ibn Sino (980 yilda tug'ilgan) agarda davlatda podsholar va hukmdorlar mavjud bo'lmay, barcha teng moddiy imkoniyatga ega bo'lganda hych kim mehnat qilmay qo'yishini, aksincha, faqat qashshoqlik bo'lsa jamiyat tanazzulga uchrashini qayd etgan.¹ Darhaqiqat, bizningcha ham mazkur fikrlar o'z zamonasining ilg'or g'oyalari qatoridan o'rin olgan bo'lib, jamiyat barqarorligi va osoyishtaligini ta'minlash, turli tabaqalar o'rtasidagi muvozanatni saqlab turishning muhim omillaridan biri ijtimoiy muhofaza ekanligini ko'rsatadi.

Tasavvuf ta'limotida xalq manfaati uchun qayg'urish, ularning haq-huquqlarini himoyalash g'oyalari keng tarqalgan bo'lib, ushbu ta'limot namoyondalaridan Xo'ja Ahmad Yassaviy (1041-1166-1167) ning hikmatlarida oddiy xalq, yo'qsillar butun bir qatlam sifatida ta'riflanadi va ularni «g'ariblar», «yetimlar», «faqirlar» tabaqasi nomi bilan atab, mulkdorlarga aynan shu qatlamlarga nisbatan g'amxo'r bo'lishni nasihat

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi, 1993. – 176 b.

² Qarang: Karimov S. Ўрта Osiё sosiologik fikrlari tarixidan. – Samarqand: SamDU nashri, 2000. – 43 b; Maъnaviyat yulduzlari. (Markaziy Osiёlik mashhur sийmolар, алломалар, адиблар) / Масъул мухаррир Хайруллаев М.М. – Toshkent: Xalq merosi, 2001. – 167 b.

3. Qarang: Ibn Sino. Tib konunlari. 3. T. – Toshkent: Xalq merosi, 1992. T.1. – 304 b; Maъnaviyat yulduzlari. (Markaziy Osiёlik mashhur sийmolар, алломалар, адиблар) / Масъул мухаррир Хайруллаев М.М. – Toshkent: Xalq merosi, 2001. – 103 b.

qiladi va yuqori tabaqa vakillarini xalq uchun xizmat qilishga chaqiradi.² Zero, tasavvuf ta'limotining ayrim tariqatlari o'z zamonasiga nisbatan ma'lum ma'noda taraqqiyparvarlik ruhida bo'lgan va ular ijtimoiy ojiz tabaqalarning haq-huquqlarini muhofazalashga intilganlar.

O'rta asrlarning rivojlangan ikkinchi bosqichi (XIV-XVI asrlar) ga kelib Amir Temur (1336-1405) va temuriylarning ulkan davlati doirasida olib borilgan ijtimoiy siyosatga to'xtalar ekanmiz, Sohibqiron o'z saltanatida qashshoqlar miqdorini kamaytirish maqsadida ularning sonini to'la hisobga olib nafaqalar belgilagan. Xususan, u quyidagicha yozadi, «...yana amr etdimki, har bir katta-kichik shahar, qishloqda masjid, madrasa va hokazolar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona,* g'aribxona*lar solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlansinlar».¹ Albatta, ushbu g'oyalar Sohibqironning ijtimoiy qarashlari inson va uning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashga yo'naltirilganligidan guvohlik beradi. E'tiborlisi, Amir Temur o'z saltanatidagi muhtojlarni ijtimoiy muhofazalashda nazariy ko'rsatmalar berish bilan cheklanmay, berilgan farmonlarining ijrosini ta'minlanishini nazorat qilib borgan va keng qamrovli amaliy ishlarni ro'yobga chiqargan.

Amir Temurning boshlagan ibratli ishlarini uning avlodlaridan Shohruh Mirzo (1377-1447) va Mirzo Ulug'bek (1394-1449) lar davom ettirib, ular mamlakatda osoyishtalikni ta'minlash maqsadida xalq ommasining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini o'rganib chiqqanlar. Narx-navo, soliq tizimini tartibga solganlar. Hattoki, Mirzo Ulug'bek o'z madrasasida talabalarni o'qish saviyasiga qarab nafaqa (stipendiya) lar tayinlagan.² Albatta, bu tadbirlar temuriylar davrida ijtimoiy muhofaza davlat ahamiyatiga molik bo'lgan masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy (1441-1501) o'z davrida jamiyat tuzilishi va turli tabaqalarining turmush tarzini o'rganar ekan, 32 xil ijtimoiy qatlam haqida ma'lumot beradi.³ Unda nafaqat

¹ Ахмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 234 б.

* Йўловчилар кўниб ўтадиган жой.

* Камбағаллар ва етим-есирларга озик-овқат улашиладиган жой.

² Амир Темур. Темур тузуклари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 100 б.

³ Яхшиликков Ж., Ахмадов Ш. Темурийлар маънавияти. – Тошкент: Фан, 1999. – 114 б.

1. Аlisher Navoiy. Хайратул-аброр. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 254 б.

hukmron sinf vakillari, balki kambag'allar, beva-bechoralar, yetim-yesirlar, muhtojlar, tekinxo'rlar ham alohida ko'rsatilgan. Jumladan, ijtimoiy qatlamlarning yigirma yettinchisini g'arib va bechoralar, yigirma sakkizinchisini gadoylar tashkil etishini e'tirof etadi.⁴ Alisher Navoiy bu kabi tabaqalarning qashshoqlikdan chiqishlariga ko'maklashish va ijtimoiy muhofazalash to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borib, ushbu qatlamlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yengillashtirishga ko'maklashuvchi va barchaga birday xizmat ko'rsatuvchi 52 rabot, 16 ko'prik, 9 hammom, qator masjid, madrasa, xonaqoh va shifoxonalar kabi xayrli jamoatchilik inshootlarini qurdiradi. Birgina «Xolisiya» xonaqosida zaifa va miskinlarga kunlik tekin oziq-ovqat ulashish tartibini joriy etadi. Ammo, fikrimizcha, tekin oziq-ovqat ulashish kabi tadbirlarni doimiy tarzda qo'llanilishi mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan muhtojlarda boqimandalik kayfiyatini shakllanishiga olib keladi.

Shu o'rinda, O'rta Osiyoda ijtimoiy muhofaza nafaqat davlat ahamiyatiga molik masala, balki, mahalliy aholining turmush tarzi va an'analari bilan bevosita bog'liq hodisa ekanligini alohida qayd etish joiz. Sababi, bu hududda aholi qadimdan jamoalarga – mahallalarga birlashib yashaganlar. Jamoa a'zolarida o'zaro birdamlik va hamdardlik ko'nikmalari tabiiy tarzda shakllanib, rivojlanib borgan. Bu noyob hodisa bo'lib, asrlar davomida mahalla aholisi uchun jamoadagi nochor insonlarga g'amxo'rlik qilish ham qarz, ham farz hisoblangan.

Mahallalarning shakllanishi va ularda jamoaviy birdamlik, hamdardlik, o'zaro g'amxo'rlik munosabatlarining namoyon bo'lishi to'g'risida A.Saidov «Eramizgacha I ming yillikning birinchi yarmida O'rta Osiyoda «mustaqil mazmunga ega jamoa» sifatidagi ijtimoiy tashkilot mavjud bo'lib, odamlar o'z hayotlarini ixcham maskanlar – mahallalar shaklida qurganlar»,¹ – deb yozadi. Muallif mahalla atamasi ta'rifiga to'xtalar ekan, «Mahalla – arabcha «mahal», «mahallatun» so'zlaridan kelib chiqib «birgalikda» degan ma'noni anglatadi. Bu so'z ilk bor Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida uchraydi»,² – deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, mahallalarning shakllanish negizlari kishilarning jamoalarga birlashib yashash tajribasining ilk kurtaklari bilan bog'liqdir. O'rta Osiyo hududida yashovchi ko'plab elatlarning jamoalarga birlashib yashash odatining o'ziga xos

² Аlisher Navoiy. Махбуб ул қулуб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 36 б.

³ Саидов А. Маҳалла – умумий уйимиз // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2003. -№1(21). – Б. 7.

¹ Фуломов Л. Маҳалла – жамият ҳаётининг кўзгуси // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2003. - №2. – 18 б.

shakllaridan Қорақалпоғ'istonda «koshebiy»lar – mahalliy jamoalar, Xorazmda «elat», ya'ni, jamoalar xuddi mahalla kabi faoliyat yuritib, asrlar davomida o'zining asl mohiyatini yo'qotmasdan, aksincha, boyitib kelgan.

O'zbekiston hududida mahallalar Somoniylar (IX-X asrlar) va Qoraxoniylar (XI asrlar) davrida ham mavjud bo'lib, hozirgi kunda mavjud mahallalarning aksariyati XIV-XV asrlarda vujudga kelgan.¹ Mahallaning ko'chalari kesishgan yoki tutashgan joyida mahalla markazi – gazar bo'lib, aholi uchun eng zarur bo'lgan madaniy-maishiy hamda xo'jalik inshootlari, jumladan, masjid, maktab, choyxona, mehmonxona, nonvoyxona, qassoblik, baqqollik, yamoqchilik ustaxonalari, do'konlar, sartaroshxona, karvonsaroy, Ramazon oyida «Bozori shab», boshqa vaqtlarda «Bozori subh» deb ataluvchi mo'jazgina bozorcha va mahalla ellikboshisining mahkamasi bo'lgan. Mahallani boshqarish qat'iy tartib asosida olib borilgan va unga xalq tomonidan saylanadigan amin rahbarlik qilgan. Xonliklar davrida aminga katta huquq va vakolatlar berilgan. Chunonchi, ayrim soliqlarni yig'ish, mulkiy va oilaviy nizolarni hal qilish, qozining ba'zi hukmlarini ijro etish, mahalla obodligini nazorat qilish, hudud aholisi osoyishtaligi va xavfsizligini ta'minlash, shahar doirasida hal etiladigan masalalarga munosabat bildirish, savdo muassasalari ishini nazorat etish va hokazolar shular jumlasidandir. Amin xazinadan maosh olgan, uning ish vaqti chegaralanmagan. Jamoa ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar har bir ko'chadan saylangan o'nboshilar bilan kelishilgan holda hal etilgan. Mahalla hududida joylashgan turli inshootlarni ta'mirlash, chorvani boqish ishlarida ham jamoatchilik kayfiyati kuchli bo'lib, maxsus farrosh, cho'pon va mardikorlar yollangan. Bu ishlarni amalga oshirishda kam ta'minlangan, muhtoj kishilar jalb etilgan va ularga oz bo'lsa-da daromad manbaiga ega bo'lish va o'zini-o'zi ta'minlash imkoniyati yaratilgan. Mehnat qobiliyatiga ega bo'lmagan nogironlar, yetim-yesirlar, qariyalar ahvolidan xabar olish esa mahallaning har bir a'zosi uchun farz hisoblangan. Ularning oilaviy bayram va to'ylari, dafn marosimlari va boshqa tadbirlarini o'tkazish an'anaga ko'ra, qavmu qarindosh, yaqin qo'shnilarning ishtirokida olib borilgan. Hududning muysafid oqsoqollari, mahalla faollari bunday qatlamlarni kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilgan. Soliqlardan juzya* mahalla tasarrufiga olib qolinib, muhtojlarga xayr-ehson qilish,

² Бахронов Ж. Социология. – Самарқанд: СамҚХИ, 2000. – 78 б.

* Жон солиғи.

obodonchilik ishlarini amalga oshirishda foydalanilgan. Mahalladagi boy kishilar, o'ziga to'q tadbirkorlar, ishfurush*lardan to'plangan xayriya pullarini sarflashda mahalla masjidi bilan hamkorlikda ish olib borilgan va hududda istiqomat qiluvchi ojiz kishilar, muhtoj oilalarni ta'minlab turish uchun sarflangan. Amin va masjid mutavallisi mahalladagi yetim-yesirlar, tul-bevalar, batraklar, majruhlarni ro'yxatini olib hayitlarda ularga hayitlik* tarqatganlar, mol-qo'ylarni so'yib guzarlarga xomtalash*ga osib qo'yganlar. Hayit va juma kunlari doshqozonlarda taomlar pishirilib xalqqa tarqatilgan.¹ Ko'rinib turibdiki, mahallaning davlatga og'irligi tushmagan. U o'zini-o'zi boshqargan, o'zini-o'zi ta'minlagan. Muhimi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishda adolat tamoyillariga asosan ish yuritilgan.

XX asming birinchi choragida, ya'ni, bolsheviklar milliy qadriyatlarimizga ziyon yetkazmasidan oldin mahallalar, asosan, 50-60 xonadondan tashkil topib, yirik shaharlarda ular daha*lar tarkibiga kirgan. Shunga ko'ra, dahalarda o'nta va undan ziyod mahallalar mavjud bo'lib, ularda muhtoj qatlamlarga g'amxo'rlik an'anaviy tarzda davom ettirilgan. Mahalla oiladan keyingi ijtimoiy tuzilma hisoblangan. Shu bois «Mahallang otang-onang» – deb bejiz aytilmagan. Mahalladan jamiyat va davlat boshqaruvining qo'shimcha tarkibiy qismi sifatida sobiq mustabid tuzum davrida ham foydalanilib, bu davrda ularning faoliyatini nazorat qilishga doir bir necha farmon va nizomlar qabul qilingan. Masalan, 1932 yil 17 aprelda tasdiqlangan nizomnomada mahalla institutining faoliyatini shaharlarda takomillashtirishga e'tibor qaratilib, mahalla qo'mitalari shahar sovetlari huzurida, tumanlarga bo'lingan shaharlarda esa tuman sovetlari qoshida hukumatning qarorlarini bajarish, shahar obodonchiligi, madaniy-ijtimoiy va xo'jalik ishlarni amalga oshirishda yordamchi jamoat tashkilotlari hisoblangan. Muhimi, bu davrda ham mahalla oddiy xalq turmush tarzining ajralmas qismi sifatida o'z mohiyatini yo'qotmagan.

Xullas, O'rta Osiyoda aholining mehnat qobiliyatiga ega bo'lmagan, imkoniyati cheklangan qatlamlari, ya'ni, yetim-yesirlar, beva-bechoralar, qariyalar, nogironlarni ijtimoiy muhofazalash shariat va diniy qonun-qoidalar asosida insonparvarlik, saxovatpeshalik, xayr-ehson shaklida jamoaviy turmush tarzining ajralmas qismi bo'lgan.

* Кичик корхона эгалари.

* Пул, кийим-кечак, бугдой шаклидаги моддий ёрдам.

* Мухтожлар ўзларига ярашасини кесиб олганлар.

¹ Бобокулов С. Махалла тарбия ўчоғи // Ҳаёт ва иқтисод. – Тошкент, 1992. - №3. – Б. 20.

* Даҳа – форсчада – ўн.

Bizningcha, o'rganilgan davrlarda aholining ijtimoiy muhofazasi amaliy ahamiyat kasb etuvchi jarayon bo'lib, yagona hududda istiqomat qiluvchi turkiy xalqlarning mentaliteti xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Chunonchi, muhtojlarga g'amxo'rlik, ularning holidan xabardor bo'lish kabi olijanob xislatlarning avloddan-avlodga o'tib borishi sharqona jamoalar – mahallalarda shakllangan. O.Brusinaning ta'kidlashicha, «O'rta Osiyoda ming yillar maboynida mavjud bo'lgan hamda an'anaviy turmush tarzi va ahloq me'yorlariga asoslangan sosial institut – mahalla o'z moslashuvchanligi, kelishuvchanligi asosida barqarorligini isbot qilgan».¹ Darhaqiqat, tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida tuzumlar o'zgarishiga monand ravishda mahallaning tegishli hudud aholisi mahalliy hayotini tashkil etish shakli sifatidagi vazifalari o'zgarib turishiga qaramay, u hamisha millatning uyushqoqligini ta'minlovchi, o'zligini asrovchi maskan bo'lib qolgan va ijtimoiy maqomi muttasil o'sib kelgan.

1.2 G'ARBDA AHOLINING IJTIMOIIY HIMOYALASH MEXANIZMI VA HUQUQIY KAFOLATLARI

¹ Брусина О. Русские старожилы в Средней Азии: Опыт адаптации к иноэтическому окружению в различные периоды XX века // Диаспоры. – Москва, 1999. - №2-3. – С. 10.

G'arb davlatlarida aholini ijtimoiy muhofazalash va bunda mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvning ishtiroki tajribasiga murojaat qilar ekanmiz, bizning tadqiqotlarimiz bu sohadagi chora-tadbirlar hukmdorlarning yuritayotgan siyosatlari va ishlab chiqarish birlashmalari doirasida amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Masalan, Bobil hukmdori Xamurappi qonunlari (mil. avv 1800 yillar), Rim kasaba uyushmalari shuningdek, o'rta asrlarga xos bo'lgan sex birlashmalari tuzuklarida aholining ma'lum qatlamlari hamda ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyalanganligi ta'kidlanadi.¹

Ilk o'rta asrlar davrida (V-XI asrlar) Farbda bir necha avlod vakillarini o'z ichiga oluvchi katta patriarxal oilalardan iborat natural xo'jaligi bo'lib, mehnat qobiliyatiga ega bo'lmagan yetim-yesirlar, beva-bechoralar, nogironlar, qariyalarga g'amxo'rlik qilish oilaning mas'uliyati hisoblangan. Ba'zi hollarda ushbu maqsadda cherkov tushumlaridan ham foydalanilgan. Ammo, bu davrda G'arbda Sharq xalqlaridagi kabi an'anaviy jamoalar doirasida aholining muhtoj qatlamlariga g'amxo'rlik qilish tajribasi kuzatilmaydi.

Rivojlangan o'rta asrlarda (XII-XVII asrlar) Yevropada qishloq xo'jaligining past taraqqiyoti ocharchiliklar, yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lib, aholining ommaviy qirilib ketishi tez-tez sodir bo'luvchi holatga aylangan. Davlat hukmdorlari bu kabi ofatlarning oqibatlarini bartaraf qilish va zarar ko'rganlarga ko'maklashish o'rniga aziyat chekkanlarni yanada asoratga soluvchi qonunchilik hujjatlarini qabul qilgan. Masalan, 1350 yilda Angliyada vabo kasalligining tarqalishi munosabati bilan qirol Eduard III «Mehnatkashlar to'g'risida»²gi qonunni qabul qiladi. Qonun ocharchilik natijasida holdan toygan xizmatkorlarning o'z xo'jayinlaridan ish haqini talab qilishlarini taqiqlaydi. Vaholanki, Yevropa davlatlarida hukmron tabaqa vakillarini qashshoqlik va o'latlar natijasida aholining ommaviy qirilib ketishi sabablari qiziqtirmas, aksincha, qirg'inlar oqibatida yuzaga kelgan o'g'irlik, qaroqchilik, talonchlik kabi muammolar bezovta qilar edi. Ijtimoiy madadga asosan tabiiy ofat va baxtsiz hodisalardan jabrlanganlar mansub bo'lib, haqiqatdan muhtoj qatlamlar bundan mustasno edilar.

¹ Каранг: Немировский А. История древнего мира. Античность. В 2-х т. – М.: Владос, 2000. Т.2. – 379 с; Ройк В. Основы социального страхования. – М.: АНКИЛ, 2005. – 3 с.

² Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Государственное социально-экономическое издательство, 1931. – 23 с.

Shunday bo'lsa-da, G'arbda aholini ijtimoiy muhofazalash va unda mahalliy jamoalarning ishtirokini ta'minlashda 1601 yilda Angliyada qabul qilingan «Kambag'allar to'g'risida» gi qonun ahamiyatli bo'lib, unga ko'ra muhtojlarni qo'llab-quvvatlash mas'uliyati ilk bor mahalliy jamoalarga yuklanadi.¹ Qonunda muhtojlarga yordam uch shaklga bo'lindi, ya'ni, mehnat qobiliyatiga ega bo'lmaganlarga kun ko'rish imkoniyatini beruvchi yordam, mehnat qobiliyatiga ega bo'lganlarga mehnat uylarida ish bilan bandlik, ishlashni xohlamaydiganlarga turli jazo choralari joriy etish. F.Brodelning fikricha, «Yevropada qashshoqlar va gadoylar uchun maxsus uylar tashkil qilinib, bunday uylar Angliyada – mehnat uylari, Germaniyada – axloq tuzatish (yoki tarbiyaviy) uylar, Fransiyada – taqdirga tan berish uylari deyilib, yarim qamoq sharoitida mavjud bo'lgan».² Aslida, bunday uylarga joylashtirilgan sog'lom kishilar qatorida bemorlar, nogironlardan shahar kanallari va yo'llarini tozalash ishlarida majburan foydalanilgan. Bunday holat bizga, o'rta asrlarda Sharqda aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofazalash va unda mahalliy boshqaruv organlarining ishtiroki tarixi milliy va diniy urf-odatlar, an'analar, turmush tarziga bog'liq holda shakllanib, rivojlanib borgan bo'lsa, Farb davlatlarida bevosita rasmiy ko'rsatmalar, qonunchilik hujjatlari tomonidan bu kabi organlarga qisman ijtimoiy himoya mas'uliyati yuklatilganligi to'g'risidagi xulosamizni ilgari surish imkonini beradi.

Yangi davrga kelib (XVII-XIX asrlar) G'arb davlatlarida avj olgan sanoatlashish jarayoni mashinalashgan fabrika va zavodlarning paydo bo'lishi, mehnatning murakkablashuvi, o'ta holdan toydiruvchi tezlik, ish kunining chegaralanmaganligi, sog'liq uchun zararli ishlab chiqarish sohasida ayollar va bolalar mehnatidan foydalanish kabi salbiy holatlarni keltirib chiqardi. Natijada, ijtimoiy himoyaning tizimlashtirilgan shakllariga ehtiyoj kuchaydi. Bir vaqtning o'zida muhtojlik va uni yuzaga keltiruvchi omillar ilmiy jihatdan o'rganilib, fikrlarda ziddiyatlar yuzaga keldi. Jumladan, T.Maltus (1766-1834) «Ungacha band etilgan dunyoga kelgan insonni agarda ota-onasi boqa olmasa... va jamiyat uning mehnatiga ehtiyoj sezmasa, demak, mantiqan u yer yuzida

¹Гайдар Е. Становление и кризис системы социальной защиты в современном мире // Вестник Европы. – Москва, 2003. - №10. <http://www.iet.ru>.

² Там же.

ortiqchadir. Tabiat unga chetlanishni buyuradi va buni amalga oshirishni kechiktirmaydi», – deb ta’kidlaydi.¹ Uningcha, davlat tomonidan ko’rsatilayotgan moddiy yordam aholi sonini ko’payishiga olib keladi. Natijada, oziq-ovqatga talab kuchayib davlat xazinasini uchun xavf tug’iladi va kambag’allikni keltirib chiqaradi. Keyinchalik G.Spenser (1820-1903) ushbu g’oyani rivojlantirib, «Tug’ilishning oshib borishi yashash uchun kurash jarayonini murakkablashtirib yuboradi. Bu kurashda faqat kuchlilar g’olib chiqadilar. Aksincha, yetarlicha faollikka ega bo’lmaganlar tabiiy tarzda siqib chiqariladi va ular o’limga mahkumdirlar»,² – degan fikrni bildiradi. U ojiz qatlamlarni davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash tabiiy tanlov qonuniyatlarini buzib aqlan, jismonan qobiliyatsiz kishilar sonini ko’paytiradi va jamiyat uchun foydali sog’lom insonlarning yashash uchun kurash jarayonini murakkablashtiradi, deb hisoblaydi. Bizningcha, bu fikrlar insonparvarlik nuqtai nazaridan o’ta shafqatsiz bo’lib, inson omilining oliy qadriyat ekanligi g’oyasiga ziddir.

Keyinchalik qator olimlar T.Maltus va G.Spenserning ijtimoiy himoyaga bergan baholarini inkor etadilar. Jumladan, A.Smit «Xalqlarning boyligi ikki muhim shart-sharoit, birinchidan, tegishli xalq o’z mehnatini qo’llay olishda qanchalik mohir va topqirligi, ikkinchidan, ishlab chiqarishda band bo’lganlar va mehnat qobiliyatiga ega bo’lmaganlar sonining mutanosibli bilan belgilanadi. Sivilizatsiyali xalqlarda ko’pchilik bevosita ishlab chiqarishda band bo’lmasa-da, umumdavlat farovonligi hisobidan yaxshi turmush kechiradilar»,¹ – deydi. Darhaqiqat, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning haq-huquqlarini himoyalash, ularga munosib turmush tarzini kafolatlash zamonaviy jamiyatlar taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlaridan bo’lib, moddiy ne’matlarning oqilona taqsimoti turli qatlamlarning mavjud ahvolidan qat’iy nazar davlat tomonidan ijtimoiy muhofazalanishiga xizmat qiladi va biz mazkur fikrni qo’llab-quvvatlaymiz.

Farb davlatlaridagi keyingi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy voqeyalar inson va uning shaxsiy erkinligi, haq-huquqlari oliy maqsad ekanligi to’g’risidagi g’oyalarning yoyilishiga turtki bo’ldi. Endilikda, oilaviy-jamoaviy g’amxo’rlik munosabatlariga

¹ Юсупов Б. Становление и развитие экономической науки. – Бишкек: Учкун, 1999. – 62 с.

² Барулин В. Социальная философия. – М.: Фаир-Пресс, 1999. – 181 с; Spenser Н. The evolution of society. – Chicago, 1967. – Р. 5.

³ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народа / Классика экономической мысли. – М.: ЭКСМО-ПРЕСС, 2000. – 77 с.

putur yetib, ijtimoiy muhofazaning davlat miqyosidagi yangi ta'limotlari ishlab chiqila boshlandi. Ilk bor XVIII asrning 60-yillarida Buyuk Britaniyada fabrika-zavodlarda band bo'lgan mehnatkashlarni majburiy ijtimoiy himoyalash va sug'urtalash tizimi joriy ettirildi. Mazkur asrning 80-yillarga kelib xuddi shunday qonunchilik hujjatlari Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi davlatlarda ham qabul qilina boshlandi.

XIX asr oxiriga kelib Germaniyada ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarni majburiy ijtimoiy himoyalash va sug'urtalash tizimining qonunchilik asoslari yaratildi. Uning tarkibiga kasallikdan (1883 yil), nogironlik va qarilikdan (1889 yil) hamda ishlab chiqarishning zararli oqibatlari va baxtsiz hodisalardan (1884 yil) muhofazalash to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari kirar edi.² Ko'rib turganimizdek, ijtimoiy himoya tizimi davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida umummilliy, umumjahon, umuminsoniy ahamiyat kasb etib borishi rivojlangan Farb davlatlari tajribasiga xos bo'lib, aynan, XIX asrning 80-yillaridan, XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrni davlat ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi va qonunchilik asoslarini shakllanishining birinchi bosqichi sifatida qabul qilishimiz mumkin. Ikkinchi bosqichi esa, XX asrning 20-yillari oxiri – 60-yillari boshlarini o'z ichiga olib, I va II Jahon Urushlarida yo'qotilgan ulkan inson zahiralari umumjahon hamjamiyatining oldiga inson omiliga jiddiy yondashuv va e'tibor bilan munosabatda bo'lish, aynan, mukammal ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarining umumbashariy mezonlari, tamoyillarini, yo'nalishlarini ishlab chiqish ehtiyojini ko'ndalang qo'ydi.¹ Ushbu maqsadda, 1927 yilda qator davlatlar Xalqaro Ijtimoiy Ta'minot Uyushmasiga birlashdilar.² Uyushma aholini ijtimoiy muhofazalash sohasida jahon miqyosida yalpi siyosatni amalga oshiruvchi tashkilot hisoblanib, uning faoliyati natijasida ijtimoiy himoyaning shakllari, mexanizmlari, usullarining zamonaviy asoslari yaratildi.

Ijtimoiy himoyaning bosh mezonlari, tamoyillari, maqsad va vazifalarining globallashuvi natijasida 1935 yilda AQShda chop etilgan «Himoya to'g'risidagi hujjat» (Security Act) da ijtimoiy muhofaza atamasi ilk bor qo'llanildi. 1938 yilda esa, Yangi Zelandiyada chiqarilgan «Ijtimoiy muhofaza to'g'risidagi hujjat» (Social

¹ Роиқ В. Основы социального страхования. – М.: АНКЦИЛ, 2005. – 45 с.

² Ромашов О. Социология труда. – М.: Гардарики, 1999. – 202 с.

³ Международная ассоциация социального обеспечения // Энциклопедия. – Москва, 2003. – С. 549-550.
<http://issa.int.com>.

Security Act) da ijtimoiy muhofaza tegishli sohaga xos atama sifatida ta'riflandi.³ Xullas, umumsosialogik ma'noda ijtimoiy himoya atamasi G'arbda har bir fuqaroni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan aziyat chekishdan, kasallik, farzand tug'ilishi, ishlab chiqarishda shikastlanishi yoki kasb kasalligiga yo'liqqanda, nogironligi, qariligi, boquvchisidan ajralganligi uchun daromaddan mahrum bo'lishi yoki uning keskin kamayib ketishidan himoya qilish chora-tadbirlarini belgilash tartibi sifatida keng qo'llanila boshlaydi.

Keyinchalik ijtimoiy himoya tushunchasiga yangicha yondashuvni U. Beveridj 1942 yil o'zining «Erkin jamiyatda to'laqonli bandlik» deb nomlanuvchi Angliya parlamentidagi ma'ruzasida keltirib, ijtimoiy himoyaning zamonaviy mohiyatini ochib berish bilan birga uni amalga oshirishning mas'ul subyektlaridan biri davlat ekanligini asoslab beradi.¹ Uningcha, ijtimoiy muhofaza tizimi davlat miqyosida aholining barcha qatlamlari uchun yalpi holda amalga oshirilishi shart. Ingliz hukumati U.Beveridjning taklif va tavsiyalaridan unumli foydalanib, 1944-1948 yillar mobaynida jahonda birinchilardan bo'lib yalpi ijtimoiy muhofaza tizimining qonunchilik asoslarini yaratdi.

XX asrning 70-yillariga kelib ijtimoiy yo'naltirilgan umumfarovonlik davlati g'oyasi taraqqiy etgan davlatlarda mustahkam mavqeyi egallab, ijtimoiy himoya yanada saxiy ko'rinishga ega bo'la boshlaydi.² Zero, bu vaqtga kelib rivojlangan davlatlarda ish haqiga nisbatan ko'mak pullarining miqdori oshirildi. Ko'mak pullari oluvchilarga qo'yiladigan talablar qisqartirildi. Mehnat huquqi yanada mustahkamlanib, imtiyozlar doirasi kengaytirildi.

Ijtimoiy muhofaza tizimi takomillashuvining uchinchi, zamonaviy bosqichi so'nggi 40-50 yillarni (XX asrning 60-yillar boshidan hozirgi vaqtgacha) o'z ichiga olib, bir tomondan mehnatning murakkablashuvi, jismoniy mehnatga nisbatan aqliy mehnatning ustuvor ahamiyat kasb etishi, ikkinchidan, mehnatni tashkil qilish va ishlab chiqarishda band aholini ijtimoiy muhofazalash muammolarini keskinlashtirdi. XX asrning 90-yillarga kelib ijtimoiy ta'minot va sug'urtaning turli-tuman shakllarini

1.Ли Е. Совершенствование системы социального обеспечения в России в период перехода к рыночной экономике: Автореф. дис. ...канд. соц. наук. – М.: 1997. <http://humanities.ru>.

2. Beveridge W. Social Insurance and Allied Services. – London: Report, 1942. – 140 p.

3.Адамчук В., Ромашов О., Сорокин М. Экономика и социология труда. – М.: ЮНИТИ, 2001. – 393 с.

qo'llaydigan davlatlarning soni oshdi (1-ilova). Tizim samaradorligiga xizmat qiluvchi yangi mukammal mexanizmlar ishlab chiqildi. Aholining ijtimoiy huquqlarini qondirish va himoyalashga qaratilgan katta miqdordagi mablag'larga ega bo'lgan nodavlat ijtimoiy ko'mak jamg'armalari yuzaga keldi. Shuningdek, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining bu boradagi faoliyatining qonunchilik asoslari yaratila boshlandi. Aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofazalashda mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvning ishtiroki natijasida turli tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikning muvofiqlashuvi sodir bo'ldi. O'z o'rnida, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy muhofaza o'ziga xos tizim sifatida davlat ichki tuzilmasining takomillashuviga va ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvorligi ta'minlanishining omili sifatida rivojlanib bordi.

Insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari o'z xususiyatiga ko'ra o'xshash bo'lishiga qaramasdan, ushbu ehtiyojlarni qondirish borasidagi imkoniyatlari teng emas. Sababi, har bir jamiyatda bevosita ishlab chiqarish bilan band bo'lgan mehnat qobiliyatiga ega kishilar qatorida, o'zini-o'zi moddiy jihatdan ta'minlash imkoniyati cheklangan ijtimoiy nochor qatlamlar ham mavjuddir. Aynan mana shunday qatlamlarning insonga xos turmush tarzini kafolatlash, ularning iste'molchilik qobiliyatini oshirish, jumladan, mehnat munosabatlarini tartibga solish, daromadlar, ish haqi siyosati, nafaqa va aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy madad bilan ta'minlash mas'uliyati bevosita davlat, nodavlat va xususiy soha faoliyatining ustuvor yo'nalishini tashkil etadi. Zero, ilmiy tadqiqot obyekti hisoblangan aholini ijtimoiy himoya o'zaro aloqalar va munosabatlarning shunday murakkab tizimidirki, ularning yalpsi davlatning o'z fuqarolariga nisbatan olib boradigan aniq harakatlarida namoyon bo'ladi.

Sosiologiyada ushbu masalaga turlicha qarashlar bo'lib, eng avvalo, jamiyatda o'z qatlamlarni shakllantiruvchi ijtimoiy muammolar, kambag'allik, tengsizlik va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, fanning asoschilaridan E.Dyurkgeym (1858-1917) ning fikricha, «Zamonaviy jamiyatlarda o'zgarishlar shunchalik tez va jadal sur'atlarda ro'y bermoqdaki, natijada sezilarli ijtimoiy qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda».¹ Buni u anomiya hodisasi bilan

¹ Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – М.: Наука, 1990. – 40 с.

izohlab, unga ko'ra, jamiyatdagi muayyan ijtimoiy shart-sharoitlar oqibatida shakllangan tengsizlik individning mavjudligidan maqsad yo'qligini his etishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlarni oldini olish uchun muallif jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi kasbiy uyushmalarni tashkil qilish taklifini ilgari suradi. Uning ishini mehnat sosiologiyasi fani vakillaridan E.Meyo (1880-1949) ham davom ettirib, nooqilona mehnat taqsimoti va boshqaruvning byurokratik usuli natijasidagi anomiya individlar o'rtasida keskin tabaqalanishga turtki bo'lishini ko'rsatib beradi.¹ Darhaqiqat, zamonaviy jamiyatlarda sodir bo'layotgan hodisalar ijtimoiy muhitni murakkablashtirib, shaxsga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bizningcha, yolg'iz shaxsning mustaqil holda hayotiy muammolarini hal qilish imkoniyatiga ega emasligi uni solumning ajralmas qismiga aylantiradi hamda uning salbiy ta'siridan himoyalanganlik hissini keltirib chiqaradi.

J.Gelbrejt adolatli jamiyat mohiyatini o'rganar ekan, uning asosida daromadlarning oqilona taqsimoti yotishini aniqlaydi.² Ammo, bizga ma'lumki, zamonaviy bozor iqtisodiyotida moddiy boylik va daromadlar taqsimoti bir tekis emas. Bunday taqsimot har qanday jamiyat taraqqiyotiga xavf tug'diruvchi o'ta boy va qashshoq qatlamlarni shakllantiradi. Oqilona ijtimoiy himoya tizimi esa xuddi shunday keskinlikni yumshatishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi o'rta qatlam barqarorligini ta'minlashi mumkin.

Ijtimoiy himoya tushunchasining mohiyatini ochib berishdagi ilk fikrlardan biri Svidenkinning «Ijtimoiy siyosat»^{*} kitobida bayon etilib, unda muallif ijtimoiy himoyani «Butun jamiyatga taalluqli bo'lgan muammolarni hal etishga doir ijtimoiy harakatlarning amalga oshirilishidir»,³ – deb baholaydi. Ijtimoiy so'zining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, jamoaviy so'zining sinonimi bo'lib, ijtimoiy siyosat deyilganda bevosita – jamoaviy siyosat anglashiladi.

Bizning tadqiqotlarimiz fan olamida ijtimoiy himoya va uni tartibga solinishida mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari rolining nazariy asoslarini yaratishga urinishlar to'lqini XX asrning 50-yillarda asosan Farb davlatlarida boshlanganligini ko'rsatadi.

² Meyo E. The social problems of industrial civilization. – London, 1945. – P. 59.

³ Курбатов В. Современная Западная социология. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. – 283 с.

* 1911 йилда нашр эттирилган.

4. Қаранг: Буруджалов Э. Современная социальная политика: между планом и рынком. – М.: ЮНИТИ, 1996. – 132 с.

Jumladan, AQShda F.Ryotlisberg, M.Follettlar tomonidan asos solingan «Insoniy munosabatlar» maktabi namoyondalari ta'limotiga ko'ra, ijtimoiy ehtiyojlar va qadriyatlarning kafolatlanganligi ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.¹ Bu ta'limot mehnat sosiologiyasi va psixologiyasidagi muhim bosqich bo'lib, uning asoschilari F.Teylarning «Iqtisodiy inson» nazariyasini, ya'ni, inson iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi mexanizmlardan biri va uni moddiy manfaatlar yordamida boshqarib borish mumkinligi g'oyasini rad etadi. Zero, ijtimoiy himoya tamoyillaridan biri insonning nafaqat moddiy, balki, ma'naviy ehtiyojlarining uyg'unlikda qondirilganligidadir.

Ijtimoiy himoya nazariyasini yaratishdagi yirik ishlardan birini olimlardan L.Ryustov, V.Ryopke, F.Byole, V.Oyken va G.Grossman-Dertlar XX asrning 30-yillari oxirida amalga oshiradilar. Ular «Ijtimoiy bozor xo'jaligi» nazariyasini ishlab chiqib, jamiyat iqtisodiy hayotidagi yutuqlarga fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydigan erkin bozor tuzilmasini shakllantirish orqali erishish mumkinligini ta'kidlab o'tadilar.² Zotan, ijtimoiy bozor xo'jaligining mohiyati ijtimoiy adolat tamoyillarining tantanasi va ijtimoiy himoyaning ustuvorligi g'oyasiga asoslanganligidadir. Mualliflarning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda, mamlakatimizda bugungi kunda yuritilayotgan ijtimoiy siyosat o'z mohiyatiga ko'ra ushbu nazariyaga mosligini qayd etib o'tish joiz.

Bu kabi nazariyalardan biri «Umumfarovonlik davlati» nomini olib, unda ijtimoiy himoya tizimining taraqqiy etganligi davlat byudjetidan sohaga ajratilayotgan xarajatlar ulushining miqdori va ijroiya hokimiyatning mas'uliyatiga bog'liqligi ko'rsatib beriladi.³ Nazariy jihatdan umumfarovonlik davlatida fuqarolik jamiyati institutlari taraqqiy etgan bo'lib, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy huquqlarini himoyalash davlatning ustuvor maqsadi hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, biz sobiq sovet ittifoqi tajribasidan bilamizki, ijtimoiy sohaning to'liq davlat tasarrufida bo'lishi va soha muammolarini hal qilishda boshqa tuzilmalar ishtirokining sezilarsizligi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy himoya tabiatining o'zgaruvchanligini P.Kuusi o'zining «60-yillar uchun ijtimoiy siyosat» asarida ko'rsatib beradi va «Agarda avvallari ijtimoiy himoya «ojizlar» va «muhtojlar»ga

¹ Ройк В. Основы социального страхования. – М.: АНКЛ, 2005. – 46 с.

² Ройк В. Основы социального страхования. – М.: АНКЛ, 2005. – С. 59-60.

³ Самуэльсон П., Нордхаус В. Экономика. – М.: Лаборатория Базовых Знаний, 2000. – 412 с.

madad ma'nosini anglatgan bo'lsa, endilikda u butun jamiyat, davlatni qamrab oluvchi milliy iftixorga aylandi»,¹ – deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, barcha qadriyatlar, institutlar singari ijtimoiy himoya ham turli davrlarda o'zgacha mohiyat kasb etib kelgan. Uning tamoyillari, mezonlari va shakllari tegishli davlat taraqqiyoti yo'nalishlariga bog'liq holda takomillasha borgan.

Ijtimoiy himoyaning mohiyatini ochib berishdagi keyingi sharhlarda ushbu tushunchani o'zgacha anglash taklif etilgan. Jumladan, N.Volginning fikriga ko'ra, «Ijtimoiy siyosat – jamiyatning sinflari, qatlamlari, ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-kasbiy, ijtimoiy jamoa (oilalar, millat, shahar, qishloq, mintaqalar aholisi va hokazo) larni tashkil qiluvchi guruhlarining mavjud ijtimoiy ahvolini saqlab turish yoki o'zgartirish borasidagi o'zaro munosabatini aks ettiradi.»² Albatta, ijtimoiy himoya huquqiy va moliyaviy institutlar tizimidan iborat bo'lib, ularning maqsadli vazifalari qariyalar, nogironlar, bemorlar, ishsizlar, boquvchisini yo'qotgan hamda muhtoj oilalarni moddiy, tibbiy va boshqa yordam turi bilan ta'minlashdir. Shu maqsadni amalga oshirish jarayonida davlat, nodavlat va biznes tuzilmalari o'zaro munosabatga kirishadilar va hamkorlik qiladilar.

P.Larok «Yuritilayotgan ijtimoiy himoya ma'lum davlatning rivojlanganlik darajasini belgilab beradi»,³ – deydi. Bizningcha ham, davlatning moliyaviy imkoniyatlari ijtimoiy himoya tizimining saxiy shakllarini joriy etish va daromadlarni qayta taqsimlash yo'li bilan insonga xos turmush tarzini o'rnatish kafolatini beradi.

S.Smironov va T.Sidorinalar o'rganilayotgan muammo yuzasidan yirik ilmiy tadqiqotlar olib borib, «Ijtimoiy siyosat – davlat muassasalari, ish beruvchilar, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar tomonidan jamoatchilik fikrini e'tiborga olgan holda jamiyatni rivojlantirish maqsadida davlatning ijtimoiy strategiyasini shakllantiruvchi hamda fuqarolarning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ehtiyojlarini qondirish uchun muvofiq shart-sharoitlarni yaratish, fuqarolarning turmush darajasi sifatini oshirish, shuningdek, qarorlar qabul qilish hamda ularning amaliyotiga qaratilgan chora-tadbirlar, xatti-harakatlarning majmuasidir»,¹ – deb ta'kidlaydilar. Zotan, ishsizlik, kambag'allik, muhtojlik, kasallik, mehnat qobiliyatini yo'qotish kabi ko'plab holatlar

¹ Каранг: Роиқ В. Основы социального страхования. – М.: АНКИЛ, 2005. – С. 50-51.

² Волгин Н. Социальная политика. – М.: РАГС, 2005. – 537 с.

³ Ли Е. Совершенствование системы социального обеспечения в России в период перехода к рыночной экономике: Автореф. дис. ... канд. соц. наук. – М.: 1997. <http://humanities.ru>.

¹ Смирнова С., Сидорина Т. Социальная политика. – М.: Издательский дом ГУВШЭ, 2004. – 317 с.

ijtimoiy barqarorlikka taxdid soluvchi muammolardir. Xuddi shunday vaziyatga tushgan qatlamlarni ijtimoiy himoya orqali mavjud muammolarni bartaraf qilish davlat va fuqarolik jamiyati tuzilmalari, institutlarining birlamchi maqsadi hisoblanadi. Biz mazkur talqin ijtimoiy himoyaning asl mohiyatini o'zida aks ettiradi deb hisoblaymiz va uni qo'llab-quvvatlaymiz.

«Sosialnaya ensiklopediya» kitobida ijtimoiy siyosat tushunchasi ostida o'rnatilgan tartiblar, me'yorlar, qadriyatlardan kelib chiqib, jamiyatning har bir a'zosini ehtiyojlarini qondirish va ro'yobga chiqarishning qulay shart-sharoitlarini yaratish nazarda tutiladi.² Zero, inson va uning ehtiyojlari ijtimoiy himoyaning obyekt, maqsadi va vazifalaridir.

Keyingi ta'riflardan nisbatan dolzarblari V.Kukushin tomonidan bildirilib, uningcha, «Aholining ijtimoiy himoyasi jamiyatni ijtimoiy boshqaruv tizimining muhim bo'g'imlaridan biridir».³ Sababi, aholining qay darajada ijtimoiy himoyalanganligi ma'lum ijtimoiy kayfiyatni shakllantiradi va ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ijtimoiy himoya tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini o'rgangan K. Saidov, A. Xazratqulov va L. Xalikova¹larning fikrlariga ko'ra, ijtimoiy himoya ijtimoiy-iqtisodiy munosabat sifatida jamiyat va aholi o'rtasidagi muhtojlik hollarida yordam, qariyalarga ko'maklashish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ahvolni yaxshilash, hayotiy zarur vositalar bilan ta'minlash kabi munosabatlar majmuasidan iboratdir. Xullas, tadqiqotimiz davomida o'rganilgan nazariyalar va ilmiy talqinlardan kelib chiqib, keng ma'noda ijtimoiy himoya davlatning ijtimoiy ta'limoti sifatida, ijtimoiy zahiralarni qayta taqsimlash orqali jamiyatning strategiyasi va maqsadlarini aniqlab beruvchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kafolatlar tizimidir, deyishimiz mumkin. Bunda mehnat qobiliyatiga ega kishilarga shaxsiy ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati va tadbirkorligi natijasida daromadga ega bo'lishlari, ijtimoiy nochor qatlamlarga esa iste'molchilik savati qiymatiga ko'ra eng kam miqdordagi turmush darajasi

² Социальная энциклопедия / Под редакцией Горькин А. П и др. – М.: Логос, 2000. – С. 131-132.

³ Кукушин В. Социальная защита населения: опыт социально-административной работы. – М.: МарТ, 2004. – 9 с.

4. Saidov K. Aholi turmush darajasi va social himoyasining metodologik masalalari // Aholini turmush darajasini kutariش hamda ijtimoiy himoyasini kuchaytiriш йўллари va vositalari: Ilmий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002. – Б. 3-8; Xazratkulov A. Социальные проблемы Узбекистана и пути их решения: Автореф. дис. ...канд. экон. наук. – Тошкент: 1994. – 8 с; Халикова Л. Ижтимоий химоя социал-иқтисодий муносабат сифатида: Иқт. фан. номз. дис. ...автореф. – Тошкент: ЎзРДЖҚА, 2000. – 7 б.

bo'yicha belgilangan mablag' bilan ta'minlanishlari uchun imkoniyat yaratiladi.² Ijtimoiy himoya tor ma'noda jamiyatning turli qatlamlarining ijtimoiy ehtiyojlari, bandlik, sog'liqni saqlash, pensiya ta'minoti, ta'lim va hokazo sohalarida qarorlar qabul qilish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirilishidir. Shuningdek, tashqi muhitning salbiy ta'sirlaridan himoyalash va aholiga munosib turmush tarzini yaratib berishga qaratilgan ko'p qirrali, keng qamrovli huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ruhiy-ma'naviy faoliyat yo'nalishidir.

Ijtimoiy himoyaning subyektlari – turli darajadagi qonunchilik va ijroiya hokimiyatlari, davlat va nodavlat sohalaridagi ish beruvchilar, kasaba uyushmalari, o'zini-o'zi boshqarish organlari kabi institutlardir. Ular davlat ijtimoiy siyosatini shakllantirish va ro'yobga chiqarilishida faol ishtirok etadilar. Obyekti esa – tegishli mamlakat aholisi. Bosh maqsadi – insonlarning ijtimoiy talab va ehtiyojlarini qondirish uchun munosib turmush tarzi, shart-shariotlarni yaratib berish, yordamga muhtoj alohida shaxslar va ijtimoiy guruhlarini qo'llab-quvvatlashdir. Zotan, aholining barcha qatlam va guruhlarining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib ijtimoiy himoya jamiyat hayotining barqarorligini, birdamligini, mo'tadilligini ta'minlaydi va barqaror ijtimoiy-ruhiy vaziyatni saqlab turadi.

Ushbu ta'riflar ijtimoiy siyosatning quyidagi vazifalarini belgilab beradi. Birinchidan, ijtimoiy himoya jamiyat farovonligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlarini himoyalash, aholini turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali nochor, zaif qatlamlar, ya'ni, bolalar, yolg'iz onalar, qariyalar, yetimlar, nogironlar, ishsizlar, qochoqlar va hokazolarni qo'llab-quvvatlaydi. Ikkinchidan, ijtimoiy himoya daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etadi. Bunda daromadning vertikal taqsimoti ijtimoiy xizmat misolida sodir bo'ladi. Gorizantal qayta taqsimot vazifasini ijtimoiy sug'urta bajaradi. Uchinchidan, ijtimoiy himoya jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlashtiruvchilik vazifasini ham bajaradi.

Ijtimoiy himoya tizimi davlatning siyosiy, iqtisodiy, demografik, hattoki ekologik siyosatiga bevosita bog'liq tarzda rivojlanadi. Xususan, siyosatchilar saylovlarda g'alaba qilish uchun o'z saylovchilariga ijtimoiy sohada islohotlarni va'da qiladilar va ularni

¹ Хусанова Х. Ижтимоий сиёсат назарияси // Социология фанининг hozirgi zamon masalalari va muammolari / СамДУ илмий ишлар тўплами. – Самарқанд, 2004. – Б. 83.

ro'yobga chiqarishga intiladilar. Natijada ijtimoiy himoya tizimi takomillashtiriladi va yangiliklar joriy ettiriladi. Iqtisodiyotda milliy daromadning mavjud darajasi bilan ijtimoiy ta'minot tizimining imkoniyatlari doirasi belgilab beriladi. Demografik vaziyat nuqtai nazaridan aholi soni o'sib borayotgan davlatlarda bolalar va o'smirlarni ijtimoiy himoya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lsa, rivojlangan davlatlarda aholining qarib borayotganligi sababli pensiya ta'minoti va ijtimoiy xizmat turlarini qo'llanilishi kuzatiladi. Ekologik muammolar va atrof-muhitning ifloslanishi oqibatida aholi salomatligining yomonlashuvi ijtimoiy himoyaga muhtoj yangi qatlamlarni shakllantiradi.

Davlatning strategik maqsad va vazifalariga mos tarzda ma'lum ijtimoiy vaziyatdan zarar ko'rganlarni samarali ijtimoiy himoyalashning quyidagi shakllari qo'llaniladi:

– Moddiy yordam – birinchi navbatda, davlat byudjetidan maosh oluvchi aholining daromadi, nafaqaxo'rlar, stipendiya oluvchi talabalar, yordam puli oluvchilarning kompensasiyalarini to'liq yoki qisman indeksasiya qilish, narxlarning oshishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash.

– Mahsulot hisobidagi yordam – nogironlar, urush qatnashchilari, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarni sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi tibbiy yordam va yasama tayanch vositalari bilan ta'minlash.

– Samarali bandlik siyosati – kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, ish va dam olish rejimini o'zgartirish.

– Ijtimoiy sharoitlarni takomillashtirish – uy-joy, bolalar muassasalarida bo'sh o'rinlarni tashkil qilish, qariyalarni parvarishlashni tashkil qilish.¹ Qayd etib o'tish kerakki, qo'llanilayotgan ijtimoiy himoya shakli aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib talab va ehtiyojlar bozorini boshqarib borish, turmush darajasining tushib ketishini oldini olish, samarali bandlik siyosatini yuritish, ishsizlikdan himoyalash, kelgusida turmush darajasini yanada oshirish uchun munosib zamin tayyorlash, aholida boqimandalik kayfiyatini oldini olgan holda ishbilarmonlik, tadbirkorlik faoliyatini ta'minlash va qulay shart-sharoitlarni yaratuvchi omillarni qo'llash tamoyillariga bo'ysundiriladi.

¹ Социальная работа. Словарь – справочник. – М.: Контур, 1998. – 309 с.

Shuningdek, amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya umumiylik, ochiqlik, ko'ptomonlamalik, ta'minot turlarining turfa xilligi, muvofiqlik (ya'ni, ijtimoiy yordam miqdorining iqtisodiy taraqqiyot darajasiga mosligi) tamoyillarini ham istisno etmaydi.¹ Bu tamoyillar birvarakayiga ijro etilgandagina ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi ta'minlanadi.

Ijtimoiy himoyaning ushbu tamoyillaridan kelib chiqib aholini ekologik xavflar, milliy-etnik ziddiyatlar, qurolli-jinoiy tajovuzlar, diniy zo'ravonliklar, siyosiy ta'qiblar, ma'muriy laganbadorlik va g'oyaviy tazyiqlardan ham himoyalash nazarda tutiladi.

Ijtimoiy himoya ko'لامي esa quyidagi turlardan iborat, ya'ni;

– umumdavlat – jamiyatning barcha guruh va qatlamlari ehtiyojlaridan kelib chiquvchi (ta'lim olish, mehnat qilish, dam olish huquqlari va hokazo);

– mintaqaviy – iqtisodiy va ma'muriy tuzilmalar bo'yicha (respublikalar, viloyatlar, o'lkalar miqyosida);

– mahalliy – shahar, tuman, korxonalar va tashkilotlar doirasida amalga oshiriladigan himoya;

– muayyan joy yoki vaziyatda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar (masalan, tabiiy ofatlar, turli baxtsiz hodisalarda ko'maklashish).

Ijtimoiy kafolatlar barcha qatlamlarni qamrab olsa-da, uning manzilligini ta'minlash maqsadida aholining quyidagicha tarkibi inobatga olinishi shart, ya'ni, zamonaviy sharoitda ishlashga moslashgan guruhlar; ma'lum kasbiy yo'naltirilgandan so'ng ishlashi mumkin bo'lganlar; tegishli sharoitlar mavjudligida ishlay oladiganlar; mehnatga yaroqsiz aholi guruhlari; mehnat qilishni istamaydiganlar.

Aholining keltirilgan tarkibidan kelib chiqib faol yoki sust ijtimoiy himoya yuritiladi. Sust ijtimoiy chora-tadbirlar narxlarni sun'iy ravishda tutib turish hisobiga turmush darajasini oshirish yoki barqarorlashtirish, ijtimoiy himoyalashning barcha yo'nalishlari bo'yicha dotasiyalarni oshirishni ko'zda tutadi. Faol ijtimoiy himoya maqsadga muvofiq bo'lib, unda tashabbus ko'rsatish va tadbirkorlik uchun sharoit yaratib berish, nafaqaxo'rlar, faxriylar, bolalar, byudjet sohasida xizmat qiluvchilarni

¹ Николаев И. Экономическая теория. – М.: Проспект, 1999. – С. 352-353.

qo'llab-quvvatlashda davlatning rolini oshirish nazarda tutiladi.¹ Ta'kidlash joizki, faol ijtimoiy himoyada birinchidan, aholiga ijtimoiy kafolatlar berish bo'yicha davlat zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklanadi. Ikkinchidan, moddiy mablag'larni qayta taqsimlash orqali jamiyatda va uning har bir a'zosi uchun turmushning muayyan darajasiga erishiladi. Uchinchidan, aholi turmush darajasini ko'tarish yordamida ijtimoiy tanglik va keskinliklarni bartaraf etish. To'rtinchidan, davlat soliq tizimi orqali jismoniy va yuridik shaxslar daromadlarini qayta taqsimlash yo'li bilan ijtimoiy soha mablag'lari ulushini oshirish. Biroq mazkur mexanizm ayrim salbiy jihatlariga ega. Buni biz tenglashtirish tizimi amal qilgan sobiq sovet ittifoqi misolida ko'rishimiz mumkin. Bu davrda ijtimoiy ta'minot va kafolatlar haqiqatdan muhtoj bo'lganlarga yo'naltirilmasdan, umumiy turkum ostida bo'lganlarning barchasiga tegishli bo'lgan.

Amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya darajasi har bir davlatning ichki ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan kelib chiqib belgilanadi. Ushbu jarayonda shakllanadigan munosabatlar mamlakatning umumiy moliyaviy-iqtisodiy holatiga muvofiq takomillashib boradi. Bugungi kunda jahonda ijtimoiy himoyaning turli-tuman shakllari (2-ilova) bo'lib, davlat ijtimoiy siyosatining tarkibiy qismi sifatida bir vaqtning o'zida ularning bir nechasi qo'llanilishi mumkin.²

S.Smironov va T.Sidorinalar aholini ijtimoiy himoyalashda davlatning rolini o'rganib quyidagi yondashuvlarni taklif qiladilar. Davlat paternalizm*ⁱ – davlat tomonidan ijtimoiy sohani kuchli nazorat qilinish, sohada faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan muqobil subyektlarni yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik. Liberal – insonlarni iqtisodiy jihatdan kuchli (mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan) va ojiz (mehnatga yaroqsiz) larga bo'linishi. Zaif qatlamlarni iste'molchilik qobiliyatini saqlab turish va mehnatga yaroqli aholining iqtisodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mas'uliyatini davlatga yuklanishi.¹ Mualliflar fikriga ko'ra, bu ikki yondashuvda ham ijtimoiy sohadagi mas'uliyat to'laligicha davlat zimmasiga yuklatiladi. Fikrimizcha, paternalizm siyosati

¹ Лоусон Т., Гэррод Дж. Социология А-Я. Словарь-справочник. – М.: Фаир-Пресс, 2000. – 436 с.

² Роиқ В. Основы социального страхования. – М.: АНКИЛ, 2005. – С. 89-90.

* Патернализм – лотинчадан-pater-ота, paternus-оталик. Хайр-эхсон, саховатпешалик мафкураси, сиёсати ва амалиёти. Давлатнинг ўз фуқароларига нисбатан «ота»ларча гамхўрлиги.

¹ Смирнов С., Сидорина Т. Социальная политика. – М.: ГУВШЭ, 2004. – С. 39-42.

2. Жўраев С. Жамоатчилик фикрини шакллантириш, ўрганиш – давр талаби // Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 65.

davlatda ijtimoiy adolat tamoyillari, demokratik jarayonlarning mavjudligi ta'minlangan holdagina ijobiy samaraga ega bo'lib, aksincha holat ijtimoiy soha muammolarining yig'ilib qolishiga olib keladi.

Liberal yondashuvda insonning imkoniyatlarini ruyobga chiqarish nazarda tutilsa-da, ijtimoiy to'lovlar, sug'urta tizimining xilma-xilligi katta miqdordagi mablag'larni talab etadi. Natijada davlat byudjetida tanqislik sodir bo'lib, mahsulotlar va xizmatlar ta'minotida uzilishlar yuzaga keladi. Xuddi shunday holatlar, ijtimoiy himoya tizimida fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari kabi jamoatchilik va nodavlat tuzilmalari ishtirokining dolzarbligini oshiradi.

Hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlarda aholini ijtimoiy himoyalashning mohiyati davlat tomonidan belgilangan faoliyat turi yoki mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ijtimoiy kafolatlar majmui bo'lmoqda. Ushbu kafolatlar mamlakatning har bir fuqarosini (ba'zan har bir yashovchisini ham) ishsizlik, daromadlardan mahrum bo'lish, bola tug'ilishi, ishlab chiqarishda shikastlanish, kasbiy kasallikka chalinishi, nogironlik, keksalik, boquvchisidan ajralganlik va hokazolar oqibatidagi iqtisodiy va ijtimoiy tanazzuldan himoya qiladigan chora-tadbirlar tizimidan iborat.

Tabiiyki, bunday murakkab, keng ko'lamli tizimni mustahkam qonunchilik asoslarsiz yaratib bo'lmaydi. So'nggi vaqtlarda ijtimoiy himoya milliy qonunchiligining poydevori sifatida xalqaro huquq me'yorlari va hujjatlari qabul qilinmoqda. Ularning asosiylari Xalqaro iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy huquqlar Pakti, Xalqaro fuqarolik va siyosiy huquq Pakti, Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Xalqaro Sog'liqni Saqlash Tashkiloti, Xalqaro Ijtimoiy Ta'minot Uyushmalari tomonidan yaratilgan qonunchilik hujjatlaridir. Ushbu tashkilotlar jahon miqyosida turli davlatlarda ijtimoiy siyosatning oqilona yuritilishini nazorat qilib boradi va ijtimoiy nochor qatlamlarning huquqlarini paymol etilishi holatlarini oldini oladi.

Davlat miqyosida yuritilayotgan ijtimoiy siyosat konstitusiyaviy, mehnat va ijtimoiy huquq me'yorlarini o'zida ifoda etadi va sud hokimiyati tomonidan nazorat qilib boriladi. Boshqacha qilib aytganda, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy siyosatiga bevosita bog'liq milliy ijtimoiy himoya nazariyasini tashkil qiladi. Ammo bu ijtimoiy

himoya davlat siyosatidan mustaqil holda, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning strategik maqsadlari doirasida rivojlanishini istisno qilmaydi.

Amaldagi ijtimoiy himoya shaklining samaradorligi o'z o'rnida davlat va nodavlat institutlari va umuman ijtimoiy tuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Darhaqiqat, ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish va yuritishda asosiy rol davlatga, uning qonunchilik (ijtimoiy qonunlarni qabul qilish va ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilash), sud (fuqarolarning ijtimoiy huquqlari va manfaatlari buzilishiga doir arizalarni ko'rib chiqish) organlariga tegishli bo'lib, ularning faoliyatida o'zaro hamkorlik va vakolatlarining taqsimoti kuzatiladi. Bu sohada jamiyatning boshqa institutlari, jamoat tashkilotlari va uyushmalari, ayniqsa, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, ushbu tashkilotlarning davlat ijtimoiy himoya vakolatlarining ma'lum qismini o'z zimmlariga olishi ijtimoiy soha mexanizmlarini amaliyligi va samaradorligini ta'minlaydi hamda mahalliy darajadagi muammolarni o'z vaqtida jamoatchilikning faol ishtiroki yordamida bartaraf qiladi.

Qayd etish joizki, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti ijtimoiy-iqtisodiy munosabat sifatida to'liq rivojlangan XX asrda ijtimoiy himoyaning davlat ichki tuzilmalarini (muassasalar, tashkilotlar, firmalar, turli jamiyatlar, jamg'armalar, o'zini-o'zi boshqaruvchi organlar va hokazolarni) qamrab oluvchi qudratli tizimi yaratildi va tegishli davlatning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib turli-tuman modellari shakllandi. Ye.Tishinning fikriga ko'ra, ijtimoiy himoyaning alohida modellarining shakllanishi va rivojlanishiga mamlakatdagi iqtisodiy va demokratik vaziyatdan tashqari, madaniy an'analar va diniy qadriyatlar ham sezilarli ta'sir o'tkazadi.¹ Darhaqiqat, ma'lum ijtimoiy tahlika ko'rinishidan kelib chiqib ijtimoiy himoya shakli yoki ularning muvofiqlashtirilgan majmui yaratiladi. Bunda ma'lum millatning milliy-etnik va geosiyosiy xususiyatlari e'tiborga olinishi zarur.

Ushbu sohada tadqiqot olib borgan L.Govoruxina va Ye.Doroxovalar ijtimoiy himoyaning 4 asosiy, ya'ni, kontinental, skandinaviya, britaniya, o'rta yer dengizi

¹ Роиқ В. Основы социального страхования. – М.: АНКИЛ, 2005. – С. 108-109

modellarining xususiyatlarini o'rganganlar.² Unga ko'ra, kontinental modelga mansub Germaniya, Fransiya, Avstriya va Belgiyada asosiy e'tibor muhtojlarga ko'mak pullarini ajratishga qaratiladi.

Skandinaviya modeliga xos bo'lgan davlatlardan Shvesiya, Finlandiya, Daniya va Norvegiyadagi ijtimoiy xizmatlarning keng tarmog'i mavjud bo'lib, kontinental modeldan farqli ravishda davlat ijtimoiy xizmatni ishlab chiquvchi va taklif etuvchidir. Xizmatlar (ta'lim, sog'liqni saqlash, bolalar, qariyalar to'g'risida g'amxo'rlik va hokazolar) ko'pchilik hollarda mahalliy boshqaruv organlari tomonidan tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Britaniya modeli xususiy va davlat (markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat organlari ko'rinishida) sohalari o'rtasida ijtimoiy ta'minot xarajatlarining teng taqsimlanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu modelda kam ta'minlangan oilalarga yalpi ko'mak pullari ajratilishining yaxlit tizimi yo'lga qo'yilgan.

O'rta yer dengizi modeli Ispaniya, Portugaliya, Gresiya, Italiya va Irlandiya kabi davlatlarda joriy etilgan. Modelning asosiy mohiyati davlat yoki nodavlat tashkilotlari (masalan, kasaba uyushmalari) tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy sug'urtani amalga oshirilishidadir. Bu davlatlarda ijtimoiy madad muhtojlarning barchasini qamrab olmaydi. Fikrimizcha, bugungi kunda O'zbekistonda joriy etilgan ijtimoiy himoya tizimi o'z tuzilishi va amaliyotda qo'llanilishi xususiyatlariga ko'ra, skandinaviya va britaniya modellari bilan ba'zi o'xshashlik tomonlariga ega. Jumladan, mamlakatimizda yuritilayotgan ijtimoiy siyosatda ijtimoiy himoya vakolatlari davlat va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida taqsimlanadi. Unda kam ta'minlangan oilalar madadni oluvchi asosiy qatlam hisoblanadi. Ammo, bu O'zbekiston amalda bo'lgan ijtimoiy himoya qayd etilgan modellarga aynan o'xshashdir, degan xulosani keltirib chiqarmaydi. Sababi, mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalashning tartibga solinishida davlat tuzilmalari qatorida faoliyat yuritayotgan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi – mahallalar o'z xususiyatiga ko'ra noyob hodisa bo'lib, ijtimoiy himoya vakolatlarining ma'lum

1.Говорухина Л., Дорохова Е. Мировой опыт становления системы социальной защиты населения и её эволюция в условиях смешанной экономики // Вестник КазГУ. – Алматы, 1999. - №1. – С. 32-37. <http://lib.kazsu.kz>.

qismini ularga rasman yuklatilishi davlat ijtimoiy siyosatini to'ldiruvchi samarali mexanizmning shakllanishiga turtki bo'ldi. Darhaqiqat, tegishli hududda yashovchi aholining turmush tarzi, ulardagi muhtojlik darajasi to'g'risida aniq va ravshan ma'lumotga ega bo'lgan mahalliy boshqaruv organlari bir tomondan davlat mablag'laridan o'rinli foydalansa, ikkinchi tomondan mahalliy mablag'larni ishga solish orqali aynan muhtoj qatlamlarni yo'naltirilgan maqsadli ijtimoiy himoyalash imkoniyatiga egadirlar. Xullas, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya kamchiqim va qulay tizim sifatida mahalliy aholi hamda rasmiy davlat organlari o'rtasidagi muhim vositachi, bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi hamda mamlakatda demokratik jarayonlarni jadallashtirib, fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Band mohiyatidan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo'lsak, birinchidan, ijtimoiy siyosat o'zaro aloqalar va munosabatlarning shunday murakkab tizimidirki, ularning yalpsi davlatning o'z fuqarolariga nisbatan olib boradigan aniq harakatlarida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy himoya har bir davlatning ichki ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi bo'lib, aniq yo'naltirilgan huquqiy, ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy kafolatlar tizim orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini qonuniy tarzda himoyalashni kafolatlovchi shart- sharoitlarni yaratadi.

Uchinchidan, amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya darajasi har bir davlatning ichki iqtisodiy-ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib belgilanadi va bu jarayonda shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar mamlakatning umumiy moliyaviy-iqtisodiy holatiga muvofiq takomillashib boradi.

To'rtinchidan, ijtimoiy himoya tizimlari umumjahon andozalari, tamoyillariga asoslanish bilan birga tegishli davlat, millatning milliy-etnik, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlari, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy voqyeligidan kelib chiqib o'ziga xoslik tamoyillarini ham istisno etmaydi.

Beshinchidan, bugungi kunda aholini ijtimoiy himoyada nafaqat davlatning, balki nodavlat tuzilmalar, jamoat tashkilotlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvning mas'uliyati oshib bormoqda.

Oltinchidan, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya davlat ijtimoiy siyosatini to'ldiruvchi vosita sifatida fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

1 – bob mohiyatidan kelib chiqib xulosalarimizni umumlashtirar ekanmiz, qayd etish joizki, ijtimoiy himoya tizimi Sharq va G'arb davlatlarida milliy xususiyatlar, an'analar bilan chambarchas rivojlanib borgan. Xususan, O'rta Osiyoda muhtojlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarixi mahalliy aholining jamoalar – mahallalarga birlashib yashash tarzining mahsuli bo'lib, jamoadagi ojiz, zaif kishilarga saxovat ko'rsatish, g'amxo'rlik qilish qonuniyatlariga bo'ysundirilgan. Ammo, Farbda sanoatlashish jarayoni ta'sirida inson omiliga munosabatning o'zgarishi ijtimoiy himoyaning takomillashuvi va davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi hamda uning mukammal shakllarini globallashuviga turtki bo'ldi. Zamonaviy jamiyatlarda nafaqat davlat, balki nodavlat tuzilmalar, xususan, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari ijtimoiy himoya subyektlariga aylandi.

Hozirda ijtimoiy siyosat o'zaro aloqalar va munosabatlarning murakkab tizimi sifatida aniq yo'naltirilgan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kafolatlar tizim bo'lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini qonuniy tarzda kafolatlovchi shart-sharoitlarni yaratadi. Shuningdek, amaldagi ijtimoiy himoya tegishli davlatning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi va mamlakatning umumiy moliyaviy-iqtisodiy holatiga muvofiq takomillashib boradi. Ijtimoiy himoyaning jahondagi mavjud modellari qo'llanilishida xalqaro tamoyillarga asoslanilsa-da tegishli millatning tarixiy merosi, an'analari va turmush tarzini o'zida aks ettiradi. Xususan, O'zbekistonda amalda bo'lgan ijtimoiy himoya tizimi aynan shu jihati bilan e'tiborli bo'lib, bunda nafaqat davlatning, balki jamoatchilik tashkilotlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvning mas'uliyati oshib bormoqda. Zotan, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya o'z mohiyatiga ko'ra, davlat ijtimoiy siyosatini to'ldirib qolmasdan huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish tamoyillariga mosligi bilan ahamiyatlidir.

II-bob. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida

2.1 O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi va aholini ijtimoiy himoyalashning ustuvor vazifalari

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o'z oldiga erkin, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Mazkur maqsadga erishish jarayonida bosqichma-bosqich fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlarini, xususan, uning muhim bo'g'ini hisoblangan jamoat tashkilotlarini jamiyat hayotidagi o'rni va rolini mustahkamlash va oshirish borasida tub islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Zero, islohotlar ko'p qirrali va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, unda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik hamda olib borilayotgan islohotlarning sifati va samarasi ko'p jihatdan jamoatchilikning ishtirokiga bog'liq, shu jihatdan, uni shakllantirishda muayyan ijtimoiy institutlarga, xususan, jamoat tashkilotlariga muhim o'rin beriladi. Binobarin, samarali faoliyat yuritadigan jamoat tashkilotlarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'z navbatida, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan fuqarolik jamiyati institutlarini quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin:

1. Iqtisodiy sohadagi manfaatlarni qanoatlantiruvchi tuzilmalar: xususiy mulk asosida vujudga keladigan va faoliyat yuritadigan nodavlat tashkilotlari; ijara asosida ishlovchi jamoalar; hissadorlik jamiyatlari; moliyaviy jamg'arma hamda uyushmalar; ishlab chiqarish korporasiya, konsernlari va birlashmalari; tadbirkorlar uyushmalari (palatasi) va boshqalar.

2. Ijtimoiy sohadagi manfaatlarni ifodalovchi tuzilmalar: oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar; ta'lim-tarbiya muassasalari (maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari); jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari; mustaqil OAV; diniy

tashkilotlar; milliy-madaniy markazlar; ixtiyoriy ko'ngilli jamiyatlar; jamoatchilik fikrini aniqlash va o'rganish institutlari; turli ijtimoiy ixtiloflarni adolatli hal etuvchi tuzilmalar va boshqalar.

3. Siyosiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi institutlar va tuzilmalar: siyosiy partiyalar; ijtimoiy-siyosiy harakatlar; siyosiy muxolifatning mavjudligi; inson huquqlarini himoyalovchi institutlar va boshqalar. O'z navbatida fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- aholini turli ijtimoiy guruhlarini manfaatlarini ifoda etadi;
- fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda muhim omil sanaladi;
- ular davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borishning asosiy vositasi hisoblanadi;
- milliy o'zlikni anglashda, jamiyat a'zolarining siyosiy-huquqiy madaniyati va milliy dunyoqarashini yuksaltirishda, milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini joriy etishda ularning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi;
- butun jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni hayotga tadbiiq etishda ular davlatning teng huquqli ijtimoiy hamkori hisoblanadi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlangan tizimi jamiyatda manfaatlar uyg'unligini qaror toptiradi va mustahkamlaydi.

Ma'lumki, har qanday tashkiliy tuzilmaning mohiyati, mazmuni va maqsadi u olib boradigan funksiyalar va faoliyat yo'nalishlarida ifodalanadi. Shu jumladan, jamoat tashkilotlarining funksiyalari ham ularning jamiyat hayotiga nisbatan muayyan faoliyatni amalga oshirishlari orqali ta'sir ko'rsatishlarida namoyon bo'ladi.

Jamoat tashkilotlarining demokratik islohotlarning samarasi va davomiyligini ta'minlash borasidagi faoliyatlarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil etish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti hisoblanadigan jamoat tashkilotlarining birlamchi va asosiy funksiyasi, ularning davlat hokimiyatini muayyan darajada chegaralash, ya'ni davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ekanligini e'tirof etish joiz. Aytish mumkinki, jamoat tashkilotlarining roli aynan demokratik jarayonlarning rivojlanish davrida uni qo'llab quvvatlash va mustahkamlashda ko'rinadi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonida siyosiy partiyalar muhim funksiyalarni amalga oshiradilar. Siyosiy partiyalarning asosiy funksiyasi alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'tarish, shuningdek, bu uyg'unlashgan manfaatlarning jamiyat uchun bir xilda ahamiyat kasb etishini ta'minlay olishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar mavjud konstitusiyaviy huquq me'yorlari doirasida, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxl qilmagan holda shakllanib kelayotgan siyosiy jarayonlar va munosabatlar taomillari doirasida muqobil siyosiy yullarni ifoda etuvchi vosita sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Umuman, har bir partiyaning o'z dasturi va maqsadlariga mos ravishda nazariy, mafkuraviy, siyosiy va tashkiliy funksiyalari bo'lib, ular partiya faoliyati va ichki hayotining ajralmas qismidir.

Uchinchidan, jamoat tashkilotlarining eng ommaviy shakllaridan biri hisoblangan kasaba uyushmalari jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadilar. Ta'kidlash joizki, ushbu institutning ijtimoiy jarayonlardagi ta'siri faqatgina mehnat munosabatlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki undan ham kengroq doiraga qaratilgan.

Kasaba uyushmalarining ijtimoiy yo'naltirilgan funksiyalarining mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jamiyatning integrasiyalashuviga erishish;
- ishlab chiqarish demokratiyasini rivojlantirish orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
- davlatning ijtimoiy sohadagi siyosatini shakllantirishga ko'maklashish;
- jamiyatning mehnat potentsiallarini saqlash va rivojlantirish;
- bozor munosabatlarini rivojlantirish, mehnat bozorini shakllantirish;
- jamiyatda inson qadr-qimmatini oshirish va mehnat odatlarini rivojlantirish.

Mamlakatimizda ijtimoiy voqyelikning jadal sur'atlarda rivojlanib borishi, jamiyatda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar fuqarolik jamiyatining asosiy institutlarining yangi funksiyalarini shakllanishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda deyarli barcha jamoat tashkilotlari mamlakatni demokratik yo'nalishda rivojlantirish, muayyan sohalar yuzasidan inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish kabi masalalarga o'zlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida qaramoqdalar. Jamoat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar ular orqali o'zlarining turli xil manfaatlarini va huquqlarini amalga oshirishni ko'zlaydilar. Bunday sharoitda jamoat tashkilotlari oldiga fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishda ishtiroklarini ta'minlash hamda ularning mavjud qonunchilikka nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirish va shu orqali ularni qonunga itoatkor shaxs sifatida tarbiyalash kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida insoniyat oldiga muayyan maqsad va vazifalarning qo'yilishi hamda yangidan-yangi muammolarning yuzaga kelishi o'z navbatida, jamoat tashkilotlari faoliyat yo'nalishlarining o'zgarib borishi, o'z-o'zidan uning o'zgacha mohiyat kasb etishiga olib keladi. Binobarin, jamoat tashkilotlari bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonining ajralmas va zaruriy bo'g'iniga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda ularning funksiyalari doirasi kengayib borishi hamda turli xil shakllarda namoyon bo'lishi obyektiv xususiyatga egadir.

Mamlakatimiz o'z oldiga bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan. Konstitusiyamizning muqaddima qismidagi ushbu ustuvor g'oyaga inson huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida qaror toptirish borasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarimizning asosiy mezonini sifatida qaraladi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga mone'lik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlarini uning huquq va erkinliklari to'la darajada ruyobga chiqishiga yordamlashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi"¹. Darhaqiqat, fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyatdir².

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan asosiy maqsad inson hayotini muhofaza qilish, uning maqsadlari, manfaatlarini, muayyan tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir. Fuqarolik jamiyatining mazkur institutlari, o'z navbatida, alohida shaxs uchun uning hokimiyat manbai ekanligini his qilishga hamda uning layoqati va harakati, obro'si jamiyatda yuksak qadriyat sifatida tan olinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratining mavjudligi – fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan biridir. Binobarin, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo'lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o'z faoliyatini jamoatchilik

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида; хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. –Б.173

² Қаранг: Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамяти. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б.172

nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat nazorat funksiyalariga nisbatan jamoatchilik nazoratining afzal va muhim ekanligiga to'xtalib, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov, jumladan, shunday deb ta'kidlaydi: "Shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirsak, amaldorlarning zo'ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'l yo'q"³.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar barobarida davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga nisbatan aholining ishonchi muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, ushbu omil davlat va aholi o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikning yuzaga kelishida muhim o'rin tutadi. Binobarin, bunday ijtimoiy hamkorlikni shakllantirishda quyidagi uchta jihatga alohida e'tibor qaratish lozim: hokimiyat organlari faoliyatining oshkora namoyon bo'lishi; davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish; fuqarolarni jamiyatdagi mavjud institusional nazorat tizimiga jalb qilish.

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati, avvalambor jamoat tashkilotlari – siyosiy partiyalar, mahalliy o'z o'zini boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, iste'molchilarning uyushmalari va boshqalar faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Binobarin, hokimiyat organlarining jamoat tashkilotlari orqali xalq bilan muloqoti demokratiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero hokimiyat organlari xalqqa o'z siyosati va xarakatlarini tushuntirishi, uning oldida xisob berishi lozim.

Jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiy adolat qaror topishi uchun shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va

³ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. –Б.28-29.

javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Mazkur institut insonning hukuq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligini, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor ahamiyatga egaligini ta'minlaydi va bunda jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyatning tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Jamoatchilik nazoratining mazmun va mohiyatini quyidagi yo'nalishlar asosida tavsiflash mumkin:

1. Hokimiyat organlari faoliyatining doimiy tizimli monitoringini olib borish. Bu shakl asosan o'tish davrida bo'lgan va ijtimoiy-siyosiy tuzum o'zgarayotgan davlatlarga xos bo'ladi.

2. Hokimiyat organlari faoliyatiga oid manzilli monitoring olib borish. Masalan, ekologik jamoat tashkilotlarini davlat hokimiyati organlarining ekologiya sohasidagi siyosatini nazorat qilishi.

3. Ijtimoiy muhim bo'lgan qarorlarni qabul qilishda jamoatchilikning ishtiroki.

4. Hokimiyat organlari huzurida nazorat komissiyalarining, jamoatchilik kengashlarining tashkil etilishi va boshqalar.

Fuqarolik jamiyati institutlari jamoat nazoratini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatlari orqali davlatga nisbatan o'ziga xos ta'sir kuchi yaratadilar. Bir so'z bilan aytganda, jamoat tashkilotlari siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga, davlat va jamiyat qurilishi masalalariga hamda qabul qilinishi nazarda tutilayotgan qonun loyihalari va hukumat karorlariga o'z munosabatlarini bildirishlari orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar.

Albatta, yuqoridagi masalalar eng avvalo, davlat hokimiyati organlari vakolatlari doirasiga kiradi. Shu bilan birga, jamoat tashkilotlarining ishtirokisiz davlat organlari o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini samarali va to'laqonli amalga oshirishlari qiyin. Bunday sharoitda jamoat tashkilotlari davlat bilan xalq o'rtasidagi vositachi sifatida ijtimoiy muvozanatni yuzaga keltirish vazifasini o'taydilar. Bunday vositachilik, shubhasiz, har ikki tomon uchun ham foydalidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamoatchilik nazoratining ahamiyati, uni yanada samarali tashkil etish ko'p jihatdan nodavlat jamiyat tuzilmalari va uyushmalari, fuqarolik jamiyati institutlariga bog'liq ekanligi, buning uchun esa ana shu tuzilmalarning mustaqilligini amalda ta'minlash, ularning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berish hamda faolligini oshirishga ko'maklashish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va huquqiy mexanizmlarini to'la ishlab chiqish o'ta dolzarb masala ekanligiga e'tibor qaratarkan, jumladan: "qonunlar ijrosini ta'minlash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz "Adolat - qonun ustuvorligida" degan hayotiy tamoyilga qat'iy amal qilib yashashimiz zarur. Biz uchun bundan boshqa yo'l yo'q", deb ta'kidlaydi⁴.

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligini, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo'lishini ham muayyan darajada taminlaydi.

Jamoat tashkilotlari orqali olib boriladigan jamoat nazoratining ahamiyatli tomonlari va xususiyatlari qo'yidagi tamoyillarda namoyon bo'ladi:

- jamiyat va shaxs manfaatlarining ustunligi;
- bunday jamoatchilik nazoratining keng qamrovliligi, ya'ni u ijtimoiy hayotning barcha jabhalari va sohalarida amalga oshirilishi;
- uning ommaviyligi, ya'ni har bir fuqaro va fuqarolar guruhlar uchun bunday nazoratda istisnosiz ishtirok eta olish imkoniyatining mavjudligi;
- undagi oshkoralik, ya'ni uni amalga oshirish jarayoni ham, uning natijalari ham barcha uchun ochiq oydinligi va bu nazoratning ommaning nigohi hamda kuzatuvida amalga oshirilishi;
- nazoratni o'tkazishning ixtiyoriylik va beg'arazlilik asosida bo'lishi;

⁴ Қаранг: Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. –Тошкент: Ўзбекистон, 2003.–Б.10.

– uni amalga oshirish jarayonida davlat organlari, mansabdor shaxslar, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga bevosita aralashmaslik va boshqalar.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan besh mingdan ortiq jamoat tashkilotlari yuqoridagi huquqiy asoslarga tayangan holda ijtimoiy hayotning turli yo'nalishlari asosida muayyan darajada jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayoniga o'zlarining hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: “biz nohukumat va jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirishga katta e'tibor bermoqdamiz. Nodavlat va jamoat tuzilmalarining, birinchi navbatda demokratik qadriyatlar, odamlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari va huquq-tartibot idoralari faoliyati ustidan to'rachilik va korrupsiyaga qarshi kurashning samarali vositasi bo'lgan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdagi o'rni ortib borayotganini ko'rib turibmiz”⁵.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro yetmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini qonun hujjatida belgilab qo'yish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabr kuni bo'lib o'tgan qo'shma yig'ilishidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” nomli ma'ruzasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro yetilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan “O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonunni qabul qilish taklifi ilgari surildi.

⁵ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. –Б. 87.

O'tgan yillar mobaynida mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini demokratlashtirish va erkinlashtirish, ularning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonidagi keng ishtirokini ta'minlash yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirildi hamda bu borada mukammal huquqiy asos yaratildi. Ayniqsa, ushbu institutlarning huquqiy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XIII bobi jamoat birlashmalari faoliyatining konstitusiyaviy asoslariga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu tashkilotlarning turlari, faoliyat ko'rsatish tartibi, ularning davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslardan mustaqilligi kabi tamoyillar mustahkamlab qo'yildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 56-moddasida "O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi", deb belgilandi⁶.

Shuningdek, yuqoridagi konstitusiyaviy tamoyillar qator qonun hujjatlarida yanada rivojlantirildi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi va boshqa bir qator qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qonunosti hujjatlari shular jumlasidandir.

Mazkur huquqiy asoslarning yaratilishi nafaqat mamlakatimiz milliy qonunchilik tizimida jamoat tashkilotlarining faoliyatiga oid ijtimoiy

⁶ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. –Б.11.

munosabatlarni huquqiy tartibga solishning mustaqil sohasini yuzaga kelishiga olib keldi, balki, unga tizimlilik tusini berdi. Yuqoridagilar bilan birga, jamoat tashkilotlarining huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalar o'z ichiga konstitusiyaviy, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy huquq normalarini qamrab oluvchi butun qonunchilik tizimining shakllanishiga ham imkoniyat tug'dirdi.

Jamoat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tizimida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi muhim o'rin tutadi. Konstitusiyaning ko'pgina moddalarida ushbu institutlar faoliyatiga oid bo'lgan konstitusiyaviy tamoyil va qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, Konstitusiyaning 34-moddasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanligini e'tirof etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hych kim kamsitishi mumkin emasligini belgilab qo'ygan. Asosiy Qonunning 12-moddasida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi hamda hych qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi to'g'risidagi konstitusiyaviy tamoyil o'z ifodasini topgan.

Birlashishga bo'lgan konstitusiyaviy huquq yoki xalqaro hujjatlar terminologiyasi bilan aytganda, boshqalar bilan birga muayyan assosiasiyalarga uyushishga bo'lgan huquq o'z ichiga: fuqarolarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va umumiy maqsadlarga birgalikda erishish asosida ixtiyoriy ravishda tuziladigan jamoat tashkilotlarining tashkil etish huquqini hamda mavjud jamoat tashkilotlariga kirish yoki undan chiqish huquqini qamrab oladi.

Muayyan jamoat tashkiloti faoliyatida qatnashish yoki qatnashmaslik har bir fuqaroning shaxsiy ishi hisoblanadi. Fuqarolarni jamoat tashkilotiga a'zo bo'lib kirishga majburiy tarzda undash yoki undan chiqishga to'sqinlik qilish huquqqa zid faoliyat deb tan olinadi. Bundan tashqari, Konstitusiyaning 18-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega

bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanliklari belgilab qo'yilgan.

Asosiy Qonunning 35-moddasida har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, jamoat tashkilotlariga uyushish erkinligi muayyan chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mazkur huquqdan jamiyatga qarshi maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga binoan, "Konstitusiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyatini hamda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi"⁷.

Jamoat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi ijobiy jarayonlarning tamal toshi sifatida 1991 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunini ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur qonunda ilk marotaba jamoat birlashmasi (tashkiloti) institutiga huquqiy ta'rif berilishi bilan birga, uni tashkil etish maqsadi, faoliyati prinsiplari hamda huquq va majburiyatlar doirasi belgilab berildi. Qonunda belgilab qo'yilgan shakllardagi har qanday jamoat tashkilotini kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzish tartibi mustahkamlab qo'yildi⁸.

Ushbu qonunga mustaqillik yillarida kiritilgan bir qator o'zgartirishlar barobarida jamiyatda olib borilayotgan islohotlarga hamohang tarzda jamoat tashkilotlarining huquq va majburiyatlari doirasi ham kengayib bordi. Qonunga

1. Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2009. 40-б.

2 Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1991. –№4. –76-модда

binoan, ular o'zlarining ichki tuzilmasini, maqsadi, faoliyat olib borish shakli va usullarini tanlashda hamda ustavlarini qabul qilishda mustaqil ekanliklari belgilab qo'yildi.

Jamoat tashkilotlari manfaatlariga daxldor bo'lgan masalalar davlat hokimiyati va mahalliy o'z o'zini boshqarish organlari tomonidan tegishli jamoat tashkilotlarini ishtiroki yoki kelishuvi asosida hal etiladigan bo'ldi. Shu bilan birga, davlat jamoat tashkilotlarining qonuniy manfaatlari va huquqlariga rioya etilishini ta'minlashi, ularning faoliyatiga har tomonlama ko'maklashishi, xususan, soliq va boshqa masalalarda imtiyozlar berishi lozimligi belgilab qo'yildi.

Mustaqil nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish hamda ularning mamlakatda demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda va jamiyatni erkinlashtirishda faol ishtirok etishiga ko'malashish, ularni moliyalashtirish manbalarini shakllantirish uchun mustaqil tizim va obyektiv sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi, shuningdek, fond mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi tuzish haqida qo'shma Qaror qabul qildi.

Mazkur komissiyaning faoliyati "uchinchi sektor" deb nom olgan fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga davlat byudjetidan ajratilgan moliyaviy mablag'larni yanada ochiq, oshkora, aniq yo'naltirilgan va eng muhimi, demokratik asosda taqsimlashni ta'minlash imkonini bermoqda. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy negizini mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Faqat keyingi uch yilning o'zida fuqarolik jamiyati institutlari taqdim etgan turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan 11 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabr kuni bo'lib

o'tgan qo'shma yig'ilishidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy – huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunini qabul qilish zarurligini ta'kidlab o'tdi.

Mamlakatimiz ham ushbu jarayonlardan chetda qolmadi. Ziddiyatlar avj olgan sharoitda O'zbekiston rahbariyati respublika xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishning o'ziga xos yo'llarini mustaqil tarzda belgilay boshladi. 1991 yil 19-21 avgust kunlari Moskvada davlat to'ntarishiga bo'lgan urinish natijasida boshboshdoqlik va parokandalikning avj olishi, markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora keskinlashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan tarixiy sharoitda O'zbekiston hukumati vaziyatni to'g'ri baholadi va O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari 6-sessiyasi o'z ishini boshladi. Bu sessiya mamlakatimiz mustaqilligi e'lon qilinishining qonunchilik asoslarini ishlab chiqdi va xalqimiz ozru qilgan – mustaqillikka erishildi. Bu tarixiy voqyea o'zbek xalqi tarixida yangi davr, milliy dunyoqarash, yangicha tafakkur tarzini shakllanishiga turtki bo'ldi.

Tabiiyki, o'tish davrini boshidan kechirayotgan davlatlar jahon bozorida milliy mahsulotlarini raqobatbardoshligini ta'minlashda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Millatchilik, diniy fanatizm, jamiyatning turli guruhleri va qatlamlari o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishi kuzatiladi. Bularning barchasi yangi yuzaga kelgan mustaqil davlatlarning barqarorligiga tahdid soladi. Ana shunday ziddiyatli va murakkab vaziyatda mamlakatimizni o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlash, yangi jamiyat barpo qilish maqsadida rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasini o'rganish, ularning foydali qismini o'zlashtirish bilan birga xalqning turmush tarzi va an'analariga murojaat qilindi.

Bizga ma'lumki, jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hamma mamlakatbop tamoyillari, barcha uchun tavsiya qilish mumkin bo'lgan tayyor andozalari bo'lmaydi. Shu sababli, respublika hukumati rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlash uchun jiddiy izlanishlar olib borib, avvalambor, mustaqillikning dastlabki yillaridagi jarayonlar tahlil qilindi va davlat qurilishi hamda iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi sifatida besh asosiy tamoyil ilgari surildi. Ushbu tamoyillarning to'rtinchisi qilib, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish belgilandi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlagandek, «Aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash islohotlarning barcha bosqichida asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Bu islohotlarimizga asos qilib olingan besh tamoyildan biridir. Biz bundan keyin ham shu tamoyilga tayangan holda ish olib borishimiz kerak».¹ Darhaqiqat, kuchli ijtimoiy siyosatsiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishda fuqarolar orasida katta tafovut vujudga kelishi, mehnat qobiliyatiga ega bo'lmagan, imkoniyati cheklangan kishilar, ko'p bolali oilalar mushkul ahvolga tushib qolishi mumkin. Rivojlanishning besh asosiy tamoyilidan kelib chiqib, O'zbekistonda davlat ijtimoiy siyosatining bosh g'oyalari yaratildi. Bunda, birinchidan, inson qard-qimmatini kamsitmaydigan yashash sharoitini vujudga keltirish (yashash uchun eng zarur miqdor* bilan ta'minlash), ikkinchidan, ijtimoiy adolat tamoyillarining tantanasi, uchinchidan, muhtojlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish g'oyalari muhim ahamiyat kasb etdi.² Xullas, bozor munosabatlariga o'tishning muhim tamoyili sifatida kuchli ijtimoiy siyosat tanlandi va uning strategik vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

– Fuqarolar erkin iqtisodiy faoliyatini va tadbirkorligini, kasb tanlash va mehnat qilish sohasini tanlash erkinligi huquqini konstitusion kafolatlarini ta'minlash.

– Aholini ijtimoiy himoyalashning maqsadli va aniq manzilli xususiyati va turli tabaqalariga differensial yondashuv.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 18 б.

* Яшаш учун энг зарур микдор билан таъминлаш – киши ўз ҳаётини, турмушини иқтисодий томондан таъминлай олмайдиган ҳолларда унинг истеъмоли учун энг зарур нарсалар билан таъминлаш маъсулиятини давлат зиммасига олиниши. Қаранг: Мунье Э. Манифест персонализма. – М.: Республика, 1999. – 155 с.

² Государственное и административное устройство Германии. Ўзбекистон Республикасининг давлат ва маъмурий тузилиши. – Тошкент: Шарқ, 1996. – 65 с.

- Nisbatan zaif qatlamlar va guruhlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.
- Mehnatni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini qo'llash, ijtimoiy soha tarmoqlarini isloh qilish.

2.2 MAHALLADA AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini shakllantirishning e'tiborli tomoni shundaki, dastlab uning strategik maqsadlari aniqlab olinib, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish nazarda tutildi. Unga ko'ra, islohotlarning birinchi bosqichi 1991-1994 yillarni o'z ichiga olib, ikkitta hal qiluvchi vazifa, ya'ni, birinchidan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ikkinchidan, respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish ilgari surildi.

Islohotlarning butun birinchi bosqichi davomida respublika ijtimoiy siyosati uch asosiy yo'nalishda olib borilib muhtoj, ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalarni himoya qilish maqsadida davlat byudjeti hisobidan 30 turli soha va yo'nalishlar bo'ylab ijtimoiy himoya amalga oshirildi.¹ Xususan, ijtimoiy siyosatning birinchi yo'nalishga ko'ra, davlatning ushbu sohada vakolatli bo'lgan muassasalari: Mehnat va aholini ijtimoiy himoya Vazirligi, Moliya Vazirligi, Sog'liqni saqlash Vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi, Madaniy ishlar Vazirligi, shuningdek, «Mahalla», «Sog'lom avlod uchun» kabi jamoatchilik tashkilotlari, Xotin-qizlar qo'mitasi va hokozolar tomonidan amalga oshirila boshlandi va soha xarajatlari respublika byudjetining salkam uchdan bir qismini tashkil etdi. Jumladan, miqdori muntazam o'zgartirib turilgan ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar, kompensasiyalar, imtiyozlar va turli dotasiyalar shaklidagi bevosita to'lovlar ham keng qo'llanildi. Eng kam ish haqi va pensiyalardan soliq olinmaydigan bo'ldi. Korxonalarining o'z xodimlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish sohasidagi xarajatlaridan bir qismi byudjet mablag'lari hisobidan qoplanib turildi. Keng iste'mol mollari va xizmatlarining ko'pgina turlari narxlaridagi tafovutlarning o'rni qo'plandi. Ayni vaqtda, qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlarning butun bir majmui, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari va

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йулида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 129 б.

yolg'iz pensionerlar, 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul ovqat, barcha maktab o'quvchilari va talabalar uchun ovqatning arzonlashuvi kabi imtiyozlar amal qilib turdi. Ko'pgina toifadagi fuqarolarga turar joy shaxsiy mulk qilib bepul berildi, ba'zi turdagi kommunal xizmatlar haqini to'lashda yengilliklar joriy etildi. Iqtisodiy ahvol murakkab bo'lishiga qaramay, moddiy va moliyaviy imkoniyatlar cheklangan sharoitda ham ijtimoiy ahamiyatga loyiq vazifalarni hal etish uchun zarur vositalar qidirildi. Islohotlarning ushbu bosqichi zimmasiga yuklangan vazifa va pirovard samaraga ko'ra, shartli ravishda narxlarni erkinlashtirilishi, pulning qadrsizlanishi darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish chora-tadbirlari tizimdagi ustuvor yo'nalish bo'ldi. Bu yo'nalish istisnosiz barcha tabaqalarni qamrab oldi.

Ikkinchi muhim yo'nalish, respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish chora-tadbirlarini ko'rilishi bo'ldi. Islohotlarning dastlabki bosqichida sobiq ittifoqning ko'pgina davlatlarida aholining asosiy ommasi yoppasiga qashshoqlashgan bir paytda, ushbu tadbir muhim ahamiyatga ega bo'ldi va iste'mol bozorini qisman bo'lsa-da himoya qildi.

Uchinchi muhim yo'nalish, aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyani qo'llash borasida kuchli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirish. Ish haqini oshirish bilan birga barcha toifadagi maktablarning, mehribonlik uylari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar tarbiyachilari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari, ijodiy va tibbiy xodimlarni ijtimoiy himoya va ularning mehnatini rag'batlantirish maqsadida qo'shimcha moddiy ne'matlar, kvartira haqi va kommunal to'lovlar sohasida imtiyozlar berildi. Bozor munosabatlariga o'tilgach o'zgaralar yordamiga muhtoj yolg'iz qariyalar duch kelayotgan qiyinchiliklari hisobga olinib turarjoy va kommunal xizmat haqini to'lashdan ozod etildi. Bepul dori-darmon va transport xizmatidan foydalanish imkoniyati yaratildi.

Ammo ijtimoiy himoyalashning mavjud tizimi chuqur tahlil etilganda uning kamchiliklari va ijtimoiy samarasi yetarli emasligi ayon bo'lib qoldi. Chunki,

mustaqillikning dastlabki yillarida ijtimoiy siyosat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar boshqa sobiq sovet respublikalari kabi ijtimoiy himoya tizimini yangilash borasida qator yirik muammolar bilan to'qnash keldilar. Xususan, birinchidan, keskin qisqargan moliyaviy imkoniyatlarni tiklash va o'tish davrida zarar ko'rgan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoya bilan ta'minlash. Chunki, sobiq sovet davri ijtimoiy himoya tizimi kam haqli bandlik, davlat tomonidan ajratiladigan yordam puli va birinchi yordam xizmatiga asoslanib barcha uchun past darajadagi hayot tarzini birday yaratib berar edi. Favqulodda holatlardan aziyat chekkanlarni ijtimoiy himoyalash tizimi umuman mavjud emas edi. Ular alohida qatlam sifatida olinmay pensionerlar, nogironlar, homiladorlik ta'tillaridagi ayollar toifalariga kirib ketar edi.

Ikkinchidan, haqiqatdan muhtoj aholi qatlamlarini aniqlash va ularni manzilli ijtimoiy himoyalashning yangicha usullari, mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi. Sababi, sobiq totalitar tuzum davrida kambag'allik rasman tugatilgan, deb targ'ib qilinganligi natijasida muhtojlikni aniqlash tajribasi mavjud emas edi. Uy xo'jaligi byudjetining rasmiy tekshirishlar ham kambag'allikni batafsil tahlil qilish imkoniyatini bera oladigan ishonchli ma'lumotlarni keltira olmasdi. Daromadning real holati to'g'risidagi ma'lumotlar maxfiy saqlanar, oylik ish haqi miqdori markaz tomonidan o'rnatilar edi. Maosh va yordam pullari oilaviy daromadning asosiy manbalari hisoblanardi. Shuningdek, davlat yordam pullari yalpi yoki toifaviy bo'lib, unga faqat ma'lum guruhga masalan, pensionerlar, 16 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalargina da'vo qilishlari mumkin edi. Ijtimoiy sohaga ajratilayotgan davlat mablag'larining qisqartirilishi natijasida aniq yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat yuritishning imkoni yo'q edi.

Uchinchidan, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi muassasalarning deyarli mavjud emasligi. Chunki, bunday muassasalarda ijtimoiy madadga muhtojlik darajasini obyektiv tarzda baholab beruvchi ma'muriy boshqaruv tizimi va malakali mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mablag' talab etilardi. Ammo yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ijtimoiy ta'minot hukumatning ikkinchi darajali vazifalari qatorida bo'lganligi uchun sohaga yetarlicha mablag' ajratilmasdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq tuzum davridan meros bo'lib qolgan ushbu muammolar iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida yuritilgan ijtimoiy siyosat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Xususan, davlat byudjetidan sohaga ajratilayotgan mablag'larni tegishli qatlamlarga yetib bormasdan sochilib ketayotganligi ma'lum bo'ldi va ijtimoiy himoyaning mexanizmlari, vositalarini kuchaytirishda sifat jihatidan yangi bosqich zarurligi obyektiv ehtiyojga aylandi. Mazkur ehtiyoj ostida 1994 yilda iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichiga o'tilib, mamlakat kelajak istiqbolini belgilab olish maqsadidagi hukumatning strategik rejalari doirasida aholini ijtimoiy himoyalashning yangi chora-tadbirlari ishlab chiqildi va uni amalga oshirishning samarali mexanizmlari qidirildi. Bunga ko'ra, yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonarli ijtimoiy kafolatlar va aholini aniq ijtimoiy himoya tizimiga izchillik bilan o'tish maqsadga muvofiq, deb topildi. Adolat tamoyillariga rioya qilish qoidasi yangi tizim qurilishiga asos qilib olindi.¹ Zero, ushbu tizimda qo'llab-quvvatlanishga haqiqatdan muhtoj bo'lgan aholi tabaqalarini belgilashda amal qilinishi lozim bo'lgan mezonlar ham, madadni ularga yetkazish vositasi bo'lgan omillar ham aholiga ravshan, sodda, tushunarli tarzda bo'lishi kerak edi. Ijtimoiy kafolatlar va qo'llab-quvvatlanishga muhtoj bo'lgan shaxslarni aniqlashda, yordamning turi va miqdorini belgilashda subyektiv nuqtai nazardan ish qilish istisno qilinishi nazarda tutildi. Yangi tizim aniq tabaqalarni qamrab oluvchi manzilli bo'lishi va ijtimoiy sohani tartibga solinishiga xizmat qilishi kerak edi.

Izlanishlar natijasida respublika hukumati bu muammolar yechimining o'ziga xos yo'lini topdi, ya'ni, davlat ijtimoiy himoya vakolatlarining katta qismi mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari – mahallalarga bosqichma-bosqich o'tkazila boshlandi. Ushbu maqsadda davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari hamda jamg'armalarning mablag'laridan faollik bilan foydalanish nazarda tutildi. Ushbu tanlangan model faoliyati ijtimoiy ta'minot sohasini tartibga solib, jamiyatni iqtisodiy o'sishga, bozor tizimini shakllanishi, ijtimoiy barqarorlik, demokratiyani sekinlik bilan bo'lsa-da chuqurlashib borishini ta'minlashga qaratildi va

¹ Хусанова Х. Фукароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари ролининг ошиб бориши // Ижтимоий тараққиёт парадигмаси: миллий ва умумбашарий томонлари: Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2001. – Б. 56.

ijtimoiy himoya mahalla tizimining qonunchilik asoslari yaratila boshlandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 18-moddasi hamma shaxslarning tengligini o'rnatar ekan, «Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart»,² – degan qoidani mustahkamlaydi. Konstitusiyaviy huquq me'yorlariga tayanilgan holda 1993 yil 2 sentyabrda «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining e'lon qilinishi ijtimoiy sohada ilgari surilayotgan maqsadlar amaliyotidagi ilk qadamlardan biri bo'ldi. Qonun avvalambor, o'zini-o'zi boshqarish organi – mahallalarning huquqiy maqomini mustahkamladi va ular zimmasiga aholining muhtoj qatlamlarini manzilli ijtimoiy himoyalash mas'uliyatini yukladi.

1994 yil 24 avgustda «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida»gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Ushbu qonunchilik hujjatining qabul qilinishi bilan respublikada aholini ijtimoiy himoya tizimi tubdan o'zgartirildi. Qayd etish joizki, ijtimoiy sohada qabul qilingan qonunchilik hujjatlari o'zida mamlakatimizning milliy xususiyatlarini aks ettiribgina qolmay, xalqaro huquq me'yorlariga, jumladan, BMTning Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasining barcha shartlariga va 1966 yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paktning bosh tamoyillariga mosdir. Ushbu paktning 10-moddasida «Jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi hisoblanmish oilaga imkoni boricha keng ko'lamda yordam berilishi va himoya etilishi zarur. Ayniqsa, u shakllanayotgan davrda bunday ko'mak zarur, chunki mustaqil bo'lmagan bolalar va ular tarbiyasi borasidagi g'amxo'rlik hozircha oila zimmasiga tushmoqda. Bola tug'ilishidan oldin va undan keyingi davrda onalarga alohida e'tibor berilishi lozim. Bu davr maboynida ishlovchi onalarga haq to'lanadigan ta'til yoki ijtimoiy ta'minot bo'yicha yetarli nafaqa bilan ta'til berilishi kerak»,¹ – deb belgilab qo'yilgan. Xullas, bu qadam respublikamiz ijtimoiy himoya tizimi rivojining ikkinchi, yuqoriroq bosqichi bo'lib, bu bosqichda ijtimoiy ta'minot aholining aniq tabaqalarini qamrab olishga qaratildi. Endilikda, bolalar va kam

² Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 7 б.

¹ Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро Пакт // Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар тўплами. Масъул муҳаррир Саидов А. – Тошкент: Адолат, 2004. – 62 б.

daromadli oilalar ijtimoiy himoyadan bahramand bo'luvchi asosiy kishilar, uni yetkazuvchi esa – mahallalar bo'lib qoldi. Bunda aholi hayoti oilaviy, jamoaviy turmush tarziga asoslanganligi e'tiborga olindi. I.Karimov ta'kidlaganidek, «Sharq xalqlarida, jumladan, o'zimizning O'rta Osiyo sharoitida jamoa bo'lib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarning bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo'llab-quvvatlab hayot kechirishga zamin tug'diradi».¹ Zero, oila, jamoa kishilarning qon-qarindoshlik, mulk va manfaat umumiyligi, talab va ehtiyojlarini birgalikda qondirishga asoslangan, maqsadi yagona bo'lgan majmua, ya'ni, mikroijtimoiy tuzilmadir.

Iqtisodiy jihatdan qaraganda oila uy xo'jaligi bo'lib, mikroiqtisodiy tizimning asosiy bo'lagi hisoblanadi. Uning boshqa qismini esa firmalar, korxonalar tashkil etadi. Oila shu qismlari bilan birgalikda mikroiqtisodiy tizimga, ya'ni, milliy iqtisodga birikadi va tor doiradagi hodisa bo'lmay jamiyatning bir bo'lagi, aniqrog'i, uning asosini tashkil qiladi. Oilani qo'llab-quvvatlashning samarali usullarini ishlab chiqish uchun kam ta'minlangan oilalarning ijtimoiy ahvoli va kambag'allik muammolarini chuqur o'rganib chiqish ehtiyoji tug'iladi. Sababi, bunday oilalarning oylik daromadi iste'mol ehtiyojidan past bo'lib, daromadining 75-85% oziq-ovqatga sarflanadi.² Kambag'allikni aniqlash bilan esa, har bir davlat faqat o'ziga tegishli bo'lgan vazifalarni hal qilishga harakat qiladi.³ Masalan, rivojlangan davlatlar kambag'allikni aniqlash orqali o'rta va quyi qatlamlar o'rtasidagi chuqur differentsiya va ijtimoiy zarbalarga yo'l qo'ymaslikka intiladilar.

O'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan davlatlar uchun kambag'allik darajasini aniqlash yangi bozor sharoitlariga moslasha olmayotgan aholi guruhlarini manzilli ijtimoiy yordam strategiyalarini ishlab chiqish nuqtai nazaridan muhimdir. Qayd etib o'tish kerakki, bir mamlakatda qabul qilingan yashash uchun zarur eng kam miqdor boshqa davlat sharoitlariga to'g'ridan-to'g'ri mos kelmaydi. Har bir davlat aholisining turmush darajasini aniqlab beruvchi o'ziga xos

¹ Каримов И. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 7 б.

² Саидова Г. Социальная политика правительства Узбекистана в переходном периоде: достижения и проблемы // Экономическое обозрение. – Тошкент, 1998. - №1. – С. 15.

³ Алибекова С., Саидов К. Проблема бедности в Узбекистане в переходный период // Аҳолини турмуш даражасини кўтариш ҳамда ижтимоий ҳимоясини кучайтириш йўллари ва воситалари: Илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002. – Б. 18.

o'lchamlariga ega bo'lib, mavjud andozalardan og'ish hollarida ijtimoiy himoya tadbirlari kuchaytiriladi.

Respublikamizda aholining yordamga muhtoj qatlamlarini aniqlashda mazkur omillarga asoslanib ish ko'rildi va kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyaning yangi dasturi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, mahalladagi kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va aynan muhtoj kishilarga yordam berishning tarixan adolatli tizimi qayta tiklandi. Ijtimoiy adolat tamoyiliga og'ishmay amal qilingan holda, ko'rsatilayotgan moddiy yordamning aniqligini ta'minlash, uni haqiqatdan muhtoj oilalarga berish, aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlariga ayrim oilalar tomonidan boqimandalik kayfiyatida munosabatda bo'lishga yo'l qo'ymaslik, oila a'zolari, ayniqsa, bolalarning moddiy farovonligi, har tomonlama jismonan va ma'nan barkamol bo'lishi, ma'lumot va kasb darajasini oshirishi uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratishda oilaning mas'uliyatini kuchaytirish nafaqa to'lashning mezonlari va majburiy shartlar qilib belgilandi.

Mahallalarga jamoada nisbatan kam ta'minlangan oilalar hamda ariza bilan murojaat qilgan muhtoj kishilarning huquqlarini turli ijtimoiy ko'rsatkichlar orqalari aniqlash mas'uliyati yuklatildi. Ijtimoiy himoyaning ushbu tizimida kam ta'minlangan aholi qatlamlarini aniqlash mezonlari davlat dasturlari, maxsus yo'riqnomalarda aniq belgilangan bo'lib, e'tiborlisi, mahalla kengashlarining nafaqat rasmiy ko'rsatkichlarga tayanib qolmasdan, ma'lum mahalla hududida istiqomat qiluvchi aholi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lgan mahalla oqsoqollari, faollarining maslahatlari asosida ish yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi va ushbu sohada mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlarining mustaqil faoliyati qo'llab-quvvatlandi hamda ularga ishonch bildirildi.

Xullas, mazkur band mohiyatini yoritib berish davomida quyidagi xulosalarga kelindi. Xususan, birinchidan, sobiq sovet tuzumi davrida ijtimoiy siyosat hukmron partiya mafkurasidan kelib chiqib o'ta markazlashtirilgan edi. O'lkalar, jumladan, respublikamizdagi ijtimoiy dasturlarga «qoldiq» tamoyili bo'yicha iqtisodiy soha xarajatlaridan qolgan oz miqdordagi mablag'lar ajratilgan.

Ikkinchidan, O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimida mustaqil faoliyat yuritish imkoniga ega bo'lindi va rivojlanishning o'ziga xos modeli yaratilib, unga ko'ra, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tilishida kuchli ijtimoiy siyosat ustuvor maqsadlardan biriga aylandi.

Uchinchidan, islohotlarning birinchi bosqichida amalda bo'lgan yalpi ijtimoiy himoya tizimi chuqur tahlil etilganda, uning kamchiliklari va ijtimoiy samarasi yetarli emasligi ayon bo'ldi va aholini ijtimoiy himoyaning aniq yo'naltirilgan, maqsadli tizimini yaratish ehtiyoji tug'ildi.

To'rtinchidan, islohotlarning ikkinchi bosqichida ijtimoiy himoyaning aniq yo'naltirilgan manzilligi ta'minlanib, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari – mahallalar vositasidan foydalanish mexanizmi ishga tushirildi.

Beshinchidan, respublikamiz aholisini ijtimoiy himoyada mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlarining mustaqil faoliyati maqsadga muvofiq. deb topildi va qo'llab-quvvatlandi.

Oltinchidan, ijtimoiy himoyaning mahalla tizimi o'tish davrida respublikamizda ijtimoiy ta'minot sohasining tartibga solinishiga xizmat qildi.

Jamoalarni shakllanishi haqida E.Munye o'z fikrini bildirar ekan, «Jamoat – uning a'zolari bo'lgandagina mavjud bo'lishi mumkin»,² – deb qayd etadi. Darhaqiqat, insonlarni jamoalarga birlashib yashashlari natijasida ijtimoiy ehtiyojlar mutanosibligi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, milliy va boshqa qadriyatlar, ko'nikma, ijtimoiy faoliyat va xulq-atvor me'yorlarining uzluksizligi, izchilligi ta'minlandi.

² Мунье Э. Манифест персонализма. – М.: Республика, 1999. – 40 с.

XULOSA

Fuqarolik jamiyatini shakllanishi nuqtai nazaridan G'arb va Sharq ijtimoiy tizimini o'rganish fuqarolik jamiyatini shakllantirib borayotgan O'zbekiston uchun muhim ilmiy – amaliy ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonida odamlarni huquqlari ortib boradi, natijada ular o'zlarini erkinroq his qilib to'g'ri yo'ldan og'ish holatlari kelib chiqadi. Buni G'arb mamlakatlaridagi oilani global inqirozida yaqqol ko'rish mumkin. Bunday holatni oldini olish uchun fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonida odamlarga huquqiy ta'sir etish imkoniyatini pasayishini kompensasiya qilish uchun axloqiy tartibga olish kuchayib borishi lozim. Buning uchun esa axloqiy tarbiya kuchayib ma'naviyat yuksalib borishi kerak bo'ladi. G'arb mamlakatlari fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida axloqiy tarbiyaga e'tibor qilganlari uchun to'g'ri yo'ldan og'ish holatlari kelib chiqib axloqsizlik va buzuqlik ko'payib bormoqda. Bunday holat bizlarda ro'y bermaslik uchun fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonida odamlarni xulqini axloq vositasida tartibga olishga jiddiy munosabatda bo'lish lozim. Buning uchun axloqiy tarbiya negizida ma'naviyat yuksalishi lozim.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlarni ijtimoiy yo'naltirilganligini va taraqqiyotga o'zbek modelini besh tamoyillardan biri kuchli ijtimoiy siyosat ekanligi ijtimoiy himoya vaziyatni ustuvor yo'nalish ekanligidan dalolat beradi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida o'zini-o'zi boshqarish organi mahalla ijtimoiy borasidagi vakolatlarni oshishiga va ijtimoiy himoya sohasida ishlaydigan kadrlarni professional darajada tayyorlaydigan ijtimoiy ish tizimini shakllanishi ijtimoiy himoyaga yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2010 yil 12 yanvarda Parlamentni qo'shma majlisida e'lon qilingan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida» taklif qilingan «Fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organi to'g'risida»gi va «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqol) va maslahatchilarni saylash to'g'risida» gi qonunlarini qo'shish va o'zgartirishdan maqsad mahalladagi aholini ijtimoiy himoya qilish markaziga aylantirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

- 1 O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2005 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yulida. – Toshkent: O'zbekiston, 1995 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O'zbekiston, 2000 y..
5. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. –Toshkent: O'zbekiston, 2003 y.
6. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008 y.
7. Barulin V. Sosialnaya filosofiya. – M.: Fair-Press, 1999. – 181 s; Spenser N. The evolution of society. – Chicago, 1967. – R. 5.
8. Ibn Sino. Tib qonunlari. 3.T. – Toshkent: Xalq merosi, 1992. T.1. – 304
9. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi, 1993 y.
10. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. 4.T. – Toshkent: Qomuslar, 1997.
- 11.Saidova G. Sosialnaya politika pravitelstva Uzbekistana v perexodnom periode: dostijeniya i problemy // Ekonomicheskoye obozreniye. – Toshkent, 1998. - №1. – S. 15.
12. Govoruxina L., Doroxova Ye. Mirovoy opyt stanovleniya sistemy sosialnoy zashchity naseleniya i yeyo evolyusiya v usloviyax smeshannoy ekonomiki // Vestnik KazGU. – Almaty, 1999.
13. Yusupov B. Stanovleniye i razvitiye ekonomicheskoy nauki. – Bishkek: Uchkun, 1999. – 62 s.
14. J. Sosiologiya. – Samarqand: SamQXI, 2000 y.
15. Karim T. Muqaddas «Avesto» izidan. – Toshkent: Cho'lpon, 2000 y.

16. Karimov S. O'rta Osiyo sosiologik fikrlari tarixidan. – Samarqand: SamDU nashri, 2000.
17. Ma'naviyat yulduzlari. (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) / Mas'ul muharrir Xayrullayev M.M. – Toshkent: Xalq merosi, 2001.
18. Xusanova X. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rolining oshib borishi // Ijtimoiy taraqqiyot paradigmasi: milliy va umumbashariy tomonlari: Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Samarqand: SamDU nashri, 2001..
19. Boboyev H., Hasanov S. «Avesto» – ma'naviyatimiz sarchashmasi. – Toshkent: Adolat, 2001.
20. Odilqoriyev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. –Toshkent: Sharq, 2002.
21. Alibekova S., Saidov K. Problema bednosti v Uzbekistane v perexodnyy period // Aholini turmush darajasini ko'tarish hamda ijtimoiy himoyasini kuchaytirish yo'llari va vositalari: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDU nashri, 2002. – B. 18.
22. Katexizis zoroastrizma. Drevnyaya religiya magov. – M.: Sfera, 2002.
23. Jo'rayev S. Jamoatchilik fikrini shakllantirish, o'rganish – davr talabi // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Sharq, 2002.
24. Fulomov L. Mahalla – jamiyat hayotining ko'zgusi // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – Toshkent, 2003.
25. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt // Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar to'plami. Mas'ul muharrir Saidov A. – Toshkent: Adolat, 2004. – 62 b.
26. Smirnov S., Sidorina T. Sosialnaya politika. – M.: GUVShE, 2004.
27. Nabiyev F.X. Ijtimoiy siyosat. O'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand 2007 y.

